

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 105 (1704), 2026-yil 25-may, dushanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



MAMLAKATIMIZ MAKTABLARINI BITIRUVCHI O‘G‘IL-QIZLARIMIZGA

Aziz farzandlarim, hurmatli ustoz va murabbiylar, muhtaram ota-onalar!

Bugun mamlakatimizdagi barcha umumta’lim maktablarida “so‘nggi qo‘ng‘iroq”lar yangrab, bayram tadbirlari bo‘lib o‘tmoqda. Mana shu hayajonli damlarda 472 ming nafar o‘g‘il-qizlarimiz maktab ta’limini tugatib, katta hayotga yo‘llanma olmoqda.

Ana shunday unutilmas ayyom bilan barchangizni chin qalbidan samimiy tabriklayman.

Biz bugun kelajak rejalarini tuzayotgan sizdek farzandlarimiz timsolida Yangi O‘zbekistonni dunyoga tarannum etadigan buniyodkor kuchni ko‘ramiz.

Joriy yil birinchi marta 11 ming nafardan ziyod farzandlarimiz maktabni oltin va kumush medallar bilan tamomlamoqda. Bunday intiluvchan o‘g‘il-qizlarimiz kelajakda ham o‘z tengdoshlariga namuna bo‘lib, yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadi deb ishonaman.

Har bir maktab bitiruvchisining hayotida munosib o‘rin egallashi uchun hozirgi kunda katta kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayapmiz.

Albatta, bugungi bitiruvchi — ertangi muhandis, shifokor, olim, shoir va adib, tadbirkor degani. Bugungi bitiruvchi — Uchinchi Renessans buniyodkori degani. Sizlar Yangi O‘zbekistonning eng katta ishonchi va tayanchisiz.

Mamlakatimizda 207 ta oliygo‘h va 643 ta texnikum sizlarga zamonaviy bilim, kasb va malaka berishga tayyor. Tirishqoq, o‘z kuchiga ishongan yoshlarimiz hali maktabni tugatmasdan turib, yurtimizdagi, chet eldagi nufuzli oliygo‘hlariga kirishga ulgurdi. Masalan, 171 nafar yoshlarimiz dunyoning yetakchi universitetlariga, yana minglab bitiruvchilar mamlakatimizdagi oliygo‘hlariga qabul qilindi.

Ana shu farzandlarimni, ularning ota-onalari va ustozlarini bunday yutuqlari bilan chin dildan tabriklayman.

Aziz bitiruvchilar!

O‘zingiz ko‘ryapsiz, bugun hayot ham, mehnat bozorida talab ham shiddat bilan o‘zgarib bormoqda. Yangi-yangi kasblar paydo bo‘lyapti. Til, kasb, kompyuter savodxonligi va mustaqil daromad topish ko‘nikmasini egallash muhim zaruratga aylanoqda. Mehnat bozori endi, avvalo, “hujjat” emas, amaliy bilim, malaka va natija so‘rayapti.

Bugun qishloqdagi oddiy maktab bitiruvchisi ertaga dunyo tan oladigan olim bo‘ladi. Bugun oldiga katta maqsadlar qo‘ygan, intiluvchan, izlanuvchan yoshlarimiz ertaga millionlab insonlarga xizmat qiladigan texnologiyalarni yaratadi. Bugun kitob o‘qiyotgan bir qizaloq ertaga mamlakat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqadigan farzandlarni tarbiyalaydi.

Shu bois, har biringiz kamida bittadan xorijiy til va zamonaviy kasbni egallashga harakat qiling. Bu kelajakka ochilgan eshik, siz uchun qo‘shimcha imkoniyat va rag‘batdir.

Tadbirkor bo‘lishni istaydigan yoshlarimiz uchun banklar joriy yil 25 trillion so‘m arzon kreditlar taklif etmoqda. Startap loyihalarini boshlagan bitiruvchilarga esa 100 million dollar mablag‘ tayyorlab qo‘yganmiz. Eng yirik AT kompaniyalar har yili kamida 50 ming bitiruvchini sun‘iy intellekt bo‘yicha o‘qitib, yuqori daromadli ishga joylashtirishga tayyor. Kelgusi yillarda 168 ming gektar super intensiv sanoatlashgan bog‘lar tashkil qilamiz. Mazkur loyihalarda qatnashmoqchi bo‘lgan bolalarimni men doim qo‘llab-quvvatlayman.

Mana shu yangi sohalarda sizlar, albatta, o‘z kasbingizning haqiqiy egasi bo‘lasiz! Qadrli farzandlarim! Bugungi tez o‘zgarayotgan davrda hayotga, uning keskin talablariga tayyor bo‘lish bu — eng muhim vazifa.

Ushbu yo‘lda sizlar uchun eng yaqin do‘st va eng kuchli qurol — kitobdir. Chunki kitob — nur, ilm va ibrat manbai. Ko‘p kitob o‘qigan inson hech qachon to‘g‘ri yo‘ldan adashmaydi, kuchli iroda, keng dunyoqarashga ega bo‘ladi.

Bugungi hayotimizda sizlar uchun o‘rnak bo‘ladigan yutuqlarimiz, yosh-yosh qahramonlarimiz ko‘p. To‘rt-besh yil oldin maktabni tugatgan Javohir Sindorov, Nodirbek Abdusattorov, Abduqodir Husanov kabi mashhur sportchilarimiz shaxmat va futbol olamida butun dunyoni qoyil qoldirmoqda.

Yosh kino ijodkorlarimiz suratga olgan qisqa metrajli film Kann xalqaro kinofestivali doirasidagi inklyuziv filmlar festivalida Gran-pri mukofotini olishga sazovor bo‘ldi.

Kuni kecha futbol bo‘yicha milliy terma jamoamizni jahon chempionatiga katta tantana bilan kuzatdik.

Barchamizga cheksiz g‘urur va iftixor bag‘ishlaydigan bunday yutuqlar ilgari tariximizda hech qachon bo‘lmagan.

Ko‘ryapsizlarni, chin dildan intilsa, harakat qilsa, Yangi O‘zbekiston yoshlari qanday buyuk marralarni zabt etishga qodir!

Men ishonaman, sizlarning orangizdan ham ana shunday millat qahramonlari, Yangi O‘zbekiston iftixorlari yetishib chiqadi!

Bu dunyoda har bir ongli inson ota-onasi, ustozlari va el-yurti ishonchini oqlashga intilib yashaydi. Inson uchun eng ulug‘ baxt, ulkan sharaf aslida shu.

Siz bugun maktabni tugatdingiz, lekin katta hayot maktabi endi boshlanmoqda.

Men sizlarga ana shunday tengsiz baxt, yuksak saodat egasi bo‘lishingizni tilayman. Oldingizga katta maqsadlar qo‘yishdan hech qachon qo‘rqmang!

O‘zingizga ishonib, hamisha olg‘a boring! Doimo o‘zgarishlar, islohotlar ruhi bilan yashaydigan avlod bo‘ling!

Shu yo‘ldagi ilk qadamlaringiz qutlug‘ va barakali bo‘lsin!

Barchangizga baxt va omad hamisha yor bo‘lsin, aziz farzandlarim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Yakunlangan hafta mamlakatimiz hayotida muhim voqealarga boy kechdi. Quvonchli lahzalari bilan tarixga muhurlandi. Xususan, davlatimiz rahbarining “Milliy kitobxonlik harakati” dasturiga start berishi minglab qalblarda kitobxonlikka qiziqishni alangalatgan bo‘lsa, futbol bo‘yicha jahon chempionati oldidan futbolchilar, murabbiylar bilan uchrashuvi, “Bunyodkor” stadioniga tashrifi futbolsevar yurtdoshlarimizni to‘lqinlantirib yubordi.

HAR JABHADA BUNYODKORLIK, har sohada shiddatkorlikka erishamiz



MILLIY KITOBXONLIK HARAKATI

Yangi O‘zbekiston ruhi

Xalqimizning uzoq yillik orzusi o‘laroq, mundialda O‘zbekiston futbolining tarixiy natijalarga erishishini barchamiz yurakdan xohlab turibmiz. Futbolimizdagi tub o‘zgarishlar, davomli yutuqlar sportning bu turiga ommaviy mehriimizni yanada oshiryapti. Ota-onalar farzandlarining Abduqodir Husanov, Eldor Shomurodov, Abbosbek Fayzullayevdek el nazariga

tushgan o‘yinchi bo‘lishini orzu qilmoqda. Shu maqsadda o‘g‘illarini avvalgidan tubdan farq qiluvchi futbol maktablari va akademiyalariga yetaklab boryapti.

Ha, odamlar bugun adabiyot ham, sport ham, umuman, barcha sohani rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilayotganini salmoqli sa’y-harakatlar va siljishlar misolida ko‘rib

turibdi. Jumladan, mutolaa madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ishlar doirasida o‘tkazilayotgan “Yosh kitobxon” tanlovi ertamiz egalaringiz mutolaa madaniyatini yangi bosqichga olib chiqayotgani ayni haqiqat.

Davomi 2-betda

Yuksalish pallasi



OQ YO‘L SIZGA, BITIRUVCHILAR!

2025/2026-o‘quv yilida mamlakatimizdagi 10 ming 193 ta maktabni 1 million 94 ming 330 o‘g‘il-qiz tamomlamoqda. Ularning qariyb 622 ming nafari 9-sinf, 472 mingdan ziyodi esa 11-sinf bitiruvchilaridir.

- 9-sinf bitiruvchilarining 16 ming 481 nafari maktabni a’lo darajali shahodatnoma, 11-sinf bitiruvchilarining 2047 nafari kumush, 9731 nafari oltin medal bilan tamomlayapti.
- Bitiruvchilarning katta qismi Samarqand (125 ming 523 nafar), Farg‘ona (116 ming 428 nafar), Qashqadaryo (107 ming 263 nafar), Andijon (102 ming 939 nafar) viloyatlariga to‘g‘ri kelyapti.
- 2025/2026-o‘quv yilida maktab o‘quvchilari mintaqaviy va xalqaro fan olimpiadalarida 24 oltin, 46 kumush, 57 bronza medalni qo‘lga kiritdi. 2 o‘quvchi qiz Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Til bilish darajasi bo‘yicha sertifikatga ega o‘quvchilar soni 40 ming 566 nafarni tashkil etib, 2021-yildagi (10 ming 960 nafar) ga nisbatan 3,7 barobar o‘tdi.

Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

ASRGA TENGLASHGAN ISLOHOT, TARAQQIYOT VA ISTIQBOL DOVONI

Inson hayoti mazmun-mohiyatiga ko‘ra, yillar, o‘n yilliklar qamroviga sig‘maydi. Murakkab bir vaziyatda qabul qilingan qaror yoki tanlov tarixiy burilishni boshlab beradi, taqdirlarni o‘zgartirib yuboradi, jamiyatni yangi yo‘lga boshlaydi. 1991-yilning 31-avgusti biz uchun ana shunday tarixiy burilish pallasi bo‘lib qoldi. Zero, xalqimiz ayni shu kuni o‘z mustaqilligi, istiqlolini qo‘lga kiritdi, millat sifatida qayta tug‘ildi.

Yangi O‘zbekistonda kechayotgan islohotlar esa inson qadrini tikladi, odamlarga chinakam hurlikni qaytarib berdi. Shu ma’noda, mustaqillik qalbidamizda, ong-shuurimizda, taqdirimizda chuqur ildiz otaveradi, uning solnomasi O‘zbekiston nomi bilan atalayotgan g‘alabalar, jahon e’tiboriga tushgan yutuqlarimiz bilan boyib boraveradi. Bu yillarning har kuni, har lahza ma’no-mohiyatiga ko‘ra, “umr daftarini shoh satrlar bilan bezash” va bu bezakdan dunyoni hayratga solish davri bo‘lyapti.

Davomi 3-betda

GENDER SIYOSATI: RAQAMLAR ORTIDA REAL ISHLAR SAMARASI TURIBDI

Buxoro asrlar davomida Sharq sivilizatsiyasining yuragi, ilm-fanning beqiyos markazi, qit’alar kesishgan savdo yo‘llarining muhim chorrahasi bo‘lgan. Mana shunday zaminda yana bir tarixiy sahifa bitildi. Osiyo xotin-qizlarining ikkinchi forumi mintaqadagi 2,5 milliard ayolning ovozi yangragan, huquqlari, orzulari va imkoniyatlari kun tartibiga chiqarilgan muloqot maydoniga aylandi.



Forumning ayni tarix va zamonaviylik tutashgan nuqtada o‘tkazilishi bejiz emas. Zero, Sharqda ayolning mavqei hamisha nozik va chuqur mazmunga ega bo‘lgan. U nafaqat oilaning ustuni, balki jamiyatning asosi, madaniyatning ko‘zgusi va taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchidir. Bugun esa u iqtisodiyot maydoniga, parlament zallariga, ilm-fan va texnologiya dunyosiga qadam qo‘yyapti.

Prezidentimiz forum ishtirokchilariga murojaatida ta’kidlaganidek: “Bugun Osiyo qit’asida istiqomat qilayotgan 5 milliardga yaqin aholining qariyb yarmini ayollar tashkil etadi. Biz ularning timsolida nafaqat nafosat sohibalarini, balki mamlakatlarimiz taraqqiyotini jadallashtirish, xalqlar farovonligini yuksaltirish va adolatlari dunyoni barpo etish yo‘lidagi ulkan buniyodkor kuchni ko‘ramiz”. Mana shu jumladan forumning butun falsafasi mujassam.

Davomi 5-betda

HAR JABHADA BUNYODKORLIK, HAR SOHADA SHIDDATKORLIKKA ERISHAMIZ

“

Hozirga kelib futbol akademiyalari yangidan qurildi, kerakli mutaxassislar bilan ta'minlandi. Umuman, bu yo'ldagi sa'y-harakatlar, o'ylaymanki, kelajakda O'zbekistondan ko'plab mohir o'yinchilar chiqishini ta'minlaydi. Nasib qilsa, hali jahon chempionatida medallar uchun kurashadigan terma jamoa bo'lib shakllanemiz. Chunki kechagidek xalq mehri to'la tadbirlar futbolchilarning ichki g'ururi, vatanparvarligini uyg'otib yuboradi.

Boshlanishi 1-betda

Hozirgacha tanlovda mamlakatimizning barcha hududidan yuz minglab yoshlar ishtirok etdi. G'olib kitobxonlarning zamonaviy avtomobil bilan taqdirlanayotgani butun xalqimiz orasida katta qiziqish uyg'otdi. Shu ma'noda, endi mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli umummilliy harakat boshlanayapti.

Kitobxonlik harakatiga xayrixohlar bilan yangi imkoniyatlar, yorug' yo'llar haqida suhbatlashgan bo'lsak, futbolimiz fidoyilari bilan tarixiy uchrashuv, chempionat oldidagi o'yirlar xususida fikr almashdik. Sportchilarimizning "millionlar o'yini"dagi shiddati, davlatimizning mutolaa madaniyatini oshirish yo'lidagi sa'y-harakatini xorijliklar ham e'tirof etayotganidan faxrlandik.



O'zbek yoshlari yulduzlarni ko'zlaydi



Ozodbek NAZARBEKOV, O'zbekiston madaniyat vaziri:

— Bugun o'zbek futbolida adolat qaror topdi desak, menimcha, eng to'g'ri gap bo'ladi. Chunki davlatimiz rahbarining o'zi bu masalaga shaxsan kirishdi. Mana, alohida e'tiborning katta natijasini ko'rib turibmiz. Demak, adolat bor joyda yoshlarimiz hech kimdan kam emasligini bemalol namoyon eta oladi. O'g'il-qizlarimiz sport, kitobxonlik sharofigidan uyli va mashinali bo'lyapti. Futbolchilarimizni jahon chempionatiga kuzatish oldidan o'ta xayrli loyiha — milliy kitobxonlik harakati boshlab yuborildi. O'ylaymanki, bu ezgu ish kelajagimiz vorislari hayotida g'oyat muhim o'rin tutadi. Zero, yonib turgan ko'zlariga umid, ishonch berish, tayanch bo'lish o'zbek yoshlarini shijoatlantiradigan, birlashtiradigan muhim omil desak, xato bo'lmaydi. Bu sa'y-harakatlar zamirida esa, eng avvalo, yoshlarga e'tiborning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi, alohida mehr-muhabbat turibdi.

Bu kunlarni qancha kutdik?!




Odil AHMEDOV, O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi vitse prezidenti:

— Prezidentimiz bilan uchrashuvda bugunning futbolchilariga qarab, ko'nglimdan bir gap o'tdi: "Bular — eng baxtli futbolchilar". Ularning ortida davlatimiz rahbarining o'zi tog'day tayanch bo'lib turibdi. Futbolni rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasiga chiqqani va buning natijasi amalda ko'rinayotgani esa butun o'zbek xalqini xursand qilib kelyapti. Bu esa yoshlarga kuch bag'ishlab, ularni qator muvaffaqiyatlarga yetaklayapti. Shuning uchun ham o'zbek futboli, O'zbekistondagi o'zgarishlar haqida bugun dunyo ahli gapiryapti. Bu kunlarni qancha kutdik?!

Hozirgi yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlarni bir vaqt milliy terma jamoa tarkibida ekanimizda orzu qilganmiz. Futbol akademiyasidan tortib, professional futbolgacha qanaqa yo'lni bosib o'tganimizni o'zimiz bilamiz. O'sha paytlari imkonimiz darajasiga nechog'liq bo'lganini men bilan birga futbol o'ynaganlar juda yaxshi biladi. Hozirga kelib futbol akademiyalari yangidan qurildi, kerakli mutaxassislar bilan ta'minlandi. Umuman, bu yo'ldagi sa'y-harakatlar, o'ylaymanki, kelajakda O'zbekistondan ko'plab mohir o'yinchilar chiqishini ta'minlaydi. Nasib qilsa, hali jahon chempionatida medallar uchun kurashadigan terma jamoa bo'lib shakllanemiz. Chunki kechagidek xalq mehri to'la tadbirlar futbolchilarning ichki g'ururi, vatanparvarligini uyg'otib yuboradi.

Jahonga keng yo'l ochiladi



Said Al-ETER, BAA hukumat diplomatiyasi idorasi bosh direktori:


— Mamlakatingizda kitobxonlik targ'ibotiga bag'ishlangan marosimda qatnashdik. O'zbekiston Prezidenti ushbu milliy va strategik tashabbusga start berdi. Davlatimiz rahbarining nutqidan juda ilhomlandim.

O'zbekiston asrlar davomida ilm-fan markazi bo'lib kelgan. Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Imom Buxoriy kabi buyuk allomalar islom olami va butun dunyo ilm-faniga hissa qo'shgan. Bularning barchasi kitob orqali amalga oshgan. Bugun Prezidentingizning kitobxonlik harakatini ilgari surgani O'zbekiston uchun

yangi Renessans davrining boshlanishidir. Davlat rahbari kitobga va yoshlarga ishonadi. Kitob, ilm-fan va yoshlar birlashsa, O'zbekiston uchun yangi yo'l ochilishini yaxshi biladi. Nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo uchun ham keng yo'l ochiladi.

Chunki ilm-fan yaratadigan har qanday yangilik va yoshlar erishadigan yutuqlar faqat O'zbekistonga emas, balki umumiy ilm-fan taraqqiyotiga va butun dunyoga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ilgari surilayotgan ushbu strategik tashabbus va harakatni

O'zbekiston yoshlari uchun burilish nuqtasi deb bilaman. Yaqin yillarda ushbu sa'y-harakat samarasini, albatta, ko'ramiz. O'zbekiston xalqi va yoshlari uchun eng yaxshi tilaklarni bildiramiz. Zero, O'zbekiston va Birlashgan Arab Amirliklari rahbarlari boshchiligidagi bugungi munosabatlar ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik uchun namuna bo'ladi. Endi bu aloqalar faqat davlat rivoji sohasidagina emas, balki tashqi savdo, iqtisodiyot, turizm, aviatsiya, logistika, shuningdek, mutolaa, ta'lim va boshqa ko'plab yo'nalishlarda ham chuqur integratsiyaga aylandi. Bu boshqa davlatlar uchun ham ibratlidir. Ishonamizki, ikki mamlakat rahbarlari boshchiligidagi ushbu hamkorlik kelgusi yillarda yanada yangi bosqichlarga ko'tariladi.



Alisher SA'DULLAYEV, Yoshlar ishlari agentligi direktori:

— "Milliy kitobxonlik harakati", avvalo, davlatimiz rahbarining ezgu tashabbuslaridan. Binobarin, dastlab "Yosh kitobxon" tanlovi boshlanganda, Prezidentimiz "Avtomobil berib bo'lsa ham, yoshlarga kitob o'qitamiz", degandi. Qarang, oradan vaqt o'tib, millionlab yoshlar shu g'oya atrofida birlashdi. Kitobxonlik chinakam umummilliy harakatga aylanyapti. Bu harakatda hayot va umid bor. Bunga qancha samoya kiritilsa, shuncha salmoqli natija beradi.

Kitobxonlik bilimlarni kashf qiladi

Yaqinda yakunlangan navbatdagi "Yosh kitobxon" tanlovi ham buni yaqqol ko'rsatib turibdi. Mamlakatimizning 40 dan ziyod eng bilimdon, zukko o'g'il-qizlari yagona maqsad yo'lida do'stlashdi, birlashdi. Ularning noyob iqtidorini va salohiyatiga guvoh bo'lish asnosida yangi kitobxonlarni, yangi ziyoli, aqlli, bilimlarni kashf qilaveramiz.

O'zbekiston jadal rivojlanayotgan mamlakat sifatida tanilayotir. Davlat taraqqiyoti esa ilm-ma'rif, bilim va kitobxonlikka bog'liq. Yurtimizda bilimdon avlod shakllanar ekan, har qanday tahdid, har qanday xatar oldida cho'chimay, o'z yo'limizni izchil davom ettira olamiz. Shu ma'noda, Milliy kitobxonlik harakati ham yangi O'zbekistonning yengilmas, bilimli yangi avlod vakillarini tarbiyalash, ularning tengsiz iqtidorini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Futboldagi muvaffaqiyatlarning ijobiy ta'siri

Mirzahakim TO'XTAMIRZAYEV, futbol sharhlovchisi, sport faxriysi:

— Haqiqatan, 34 yillik orzumiz bugun ushaldi. O'tgan yili Abu-Dabidagi uchrashuvning so'nggi daqiqalari o'tib borayotganda kechirgan tuyg'ularimizni so'z bilan ifodalash qiyin. Yigitlarimiz jahon chempionatiga chiqishga munosibligini amalda ko'rsatdi. Futbol bor-yo'g'i bir o'yin emas, juda katta ijtimoiy hodisa, siyosat ekanini esa undan keyingi voqealar ko'rsatib berdi. Yuqori saviyadagi sammitlarda Qozog'istonda, Ozarbayjonda Prezidentimizga so'z berishdan avval shu davlat rahbarlari mamlakatimizni jahon chempionatiga chiqqani bilan tabrikkladi va "O'zbekistonga muxlislik qilamiz", dedi.

Yana bir misol. Uyiga chetdan, xorijdan mehmon kelsa, o'zbeklar dasturxon yozadi, yurtinging eng go'zal go'shalariga boshlab boradi. O'tgan yili 10-iyun kuni poytaxtimizga kelgan davlat va hukumat rahbarlarining "Bunyodkor" stadioniga taklif qilinishi ham futbolga chuqur hurmat ramzi bo'ladi. Jahon chempionati saralash uchrashuvida Qatarga qarshi o'ynayotgan yigitlarimiz 3:0 hisobida Osiyoning ikki karra va amaldagi chempionini mag'lub etib, ishonchni oqladi.

Shu o'rinda bugungi kunlarga osonlikcha yetib kelmaganimizni alohida ta'kidlash kerak. Mustaqillikka erishganimizdan buyon 2016-yilga

qadar O'zbekiston faqat bir marotaba — 2012-yili 16 yoshlilar o'rtasida Osiyo chempioni bo'lgan. 2018-yildan boshlab yigitlarimizni ketma-ket shohsupada ko'ryapmiz. 2018-yili 23 yoshlilar o'rtasida Osiyo chempioni bo'ldik. Keyin o'sha 23 yoshlilar o'rtasida ikki marta finalga chiqdik. 17 yoshlilarimiz, 20 yoshlilarimiz chempion bo'ldi. Bularning hammasi futbolimizdagi islohotlar, qilinayotgan ishlarning mevasi ekanini barchamiz his qilib turibmiz.

Yana bitta jihatga e'tibor qaratishni xohlardim. Biz avval jahon chempionatida o'zbek hakamlariga muxlislik qilardik. 2010-yildan boshlab Ravshan Ermatov brigadasi ishlardi. Bu safar ham yigitlar bilan birga hakamlarimiz ham jahon chempionatiga boradigan bo'lyapti. Hakamlarimizning ham yuzi yorug' bo'lsin.



“Mutolaa” mobil ilovasi orqali har kuni ishga ketayotganda yoki uyda bo'lgan vaqtimizda ham audiokitob tinglaymiz. Umummilliy kitobxonlikka start berilganidan keyin, bizda, albatta, unda ishtirok etish ishtiyoqi ham paydo bo'ldi.

Mutolaada ham farzandlarimizga namuna bo'laylik!

— Keyingi paytlarda yoshlarimiz hayotida tarixiy kunlar ko'p bo'lyapti. Aynan kitobxonlikka yo'naltirilgan milliy harakat yoshlarning mutolaa qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Endi harakat sovrindoriga 50 ming AQSH dollari miqdorida pul mukofoti beriladi. Bu ham intellektual salohiyat orqali mablag' topishga ishtiyoqni oshiradi.

Tanlovning xalqchilligi shundaki, bunda 1-sinf dan 11-sinf gacha bo'lgan maktab o'quvchilari ishtirok etadi. Yil davomida 50 ta kitobni kim birinchi



Marjona JO'RAQULOVA, "Qizlar akademiyasi" loyihasi rahbari:

o'qib tugatadi degan savolning berilishi, qaysi hudud, qaysi maktab faol ishtirok etgani loyihada aniq ko'rsatilishi qat'iy mexanizm bilan tizimli ishlashga ishora. Kitobxonlik madaniyatining davlat siyosati darajasiga olib chiqilishi jamiyatimizga munosib yangi avlod shakllanishida muhim.

Turmush o'rtog'im bilan shunday harakatlarda oilaviy qatnashishimiz, farzandlarimizga namuna bo'lishimiz muhim degan xulosaga keldik. Zero, bugun real ishlaydigan mexanizm bor.

Ortimizda katta kuch — xalqimiz bor

Eldor SHOMURODOV, futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi sardori:



— Tarixiy musobaqa oldidan o'tgan uchrashuv biz, futbolchilarni kuchli hayajonga soldi. Prezidentimizga terma jamoamizni alohida qo'llab-quvvatlab, ruhlantirgani uchun cheksiz minnatdorlik bildirdik.

Davlatimiz rahbarining "Sizlarga sharoit yaratish men uchun juda katta sharaf bo'ladi. Nimaga desangiz, bekorga aytmayapman, futbol bu — milliy g'ururimiz, milliy iftixorimiz, bu — tarbiyamiz, bu — madaniyatimiz, bu — o'zligimizni anglashimiz desak, bu ham to'g'ri bo'ladi", degan samimiy so'zlaridan katta kuch oldik.

Italiyada o'ynaganimda, mamlakat terma jamoasi futbol bazasini ko'rganimda bizda ham shunaqa futbol baza bo'larmikan deb havas qilganman. Xudoga shukur, hozir Yevropaning hamma standartlariga javob beradigan futbol bazamiz bor. Bu biz uchun judayam muhim va kerakli jihat edi.

Nasib etsa, ishonchni oqlaymiz. Terma jamoamiz a'zolarining barchasi shay. Yaxshi tayyorgarlik ko'rdik. Hamma zarur sharoit yaratib berildi. Barchamiz ulkan mas'uliyatni his qilib turibmiz. Ortimizda qo'llab-quvvatlab xalqimiz turgani ham bizga dadillik beradi. Nafaqat yurtdoshlarimiz, balki butun Markaziy Osiyodagi muxlislar bizni kuzatib turadi. Shuning uchun ham bor kuchimiz bilan o'ynab, yaxshi natijalar bilan qaytishga harakat qilamiz.

“Mutolaa” mobil ilovasi orqali har kuni ishga ketayotganda yoki uyda bo'lgan vaqtimizda ham audiokitob tinglaymiz. Umummilliy kitobxonlikka start berilganidan keyin bizda, albatta, unda ishtirok etish ishtiyoqi ham paydo bo'ldi.

Davlatimiz rahbarining otalarcha g'amxo'rlik bilan "Ko'proq kitob o'qinglar, o'z ustingizda ishlanglar", degan da'vatkor so'zlari barchamizga kuch beradi.

“Yangi O'zbekiston” muxbiri Munojat MO'MINOVA tayyorladi.

Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

ASRGA TENGLASHGAN ISLOHOT,
TARAQQIYOT VA ISTIQBOL DOVONI

2026-yil 25-may, 105-son



Ismoil SAIFNAZAROV,
falsafa fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Ayniqsa, so'nggi yillarda Prezidentimiz boshchiligidagi barcha sohadagi keng ko'lamlari va izchil islohotlar ona Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, xalqimiz hayotini yanada obod va farovon qilish, odamlarning davlatdan rozi bo'lib yashashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasidagi ishlariga yangicha mazmun baxsh etdi. Natijada yurtidoshlarimiz turmush tarzi, hayoti butunlay o'zgaradi, yurtimiz yangicha qiyofa kasb etib borayotir.

Bu yil O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilinganiga 35 yil to'ldi. Shu munosabat bilan joriy yil 2-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz besh yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Hujjat bilan istiqlolimizning shonli sanasini yuksak saviyada o'tkazish, ushbu ulug' bayramni munosib nishonlashga tayyorgarlik ko'rish hamda yurtimiz mustaqilligining ulkan siyosiy, tarixiy va ma'naviyat-ma'rifiy ahamiyatini inobatga olib, mazkur ayyomni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlash, shuningdek, qator yo'nalishlar bo'yicha "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" g'oyasini o'zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma'naviyat-ma'rifiy hamda targ'ibot-tashviqot tadbirlarini o'tkazish yuzasidan zarur vazifalar belgilandi.

Umumiy maqsad va orzularimizni mujassam etgan ushbu vazifalar ijrosi xalqimiz o'rtasidagi birlik va hamjihatlikni mustahkamlash, ayniqsa, yoshlar orasida milliy ruhni kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlash tarixiy bir voqea emas, balki kelajagimiz uchun muhim yo'l xaritasini belgilashdir.

Hayotimizdagi ijobiy o'zgarishlar jamiyatning har bir a'zosi uchun, u qaysi sohada mehnat qilmasin, hayotda, ijtimoiy yoki ijodiy faoliyatda o'zini to'la namoyon etish, yangilangan Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklaridan to'la foydalanish imkoniyatini berdi. Islohotlar shabdasini, eng avvalo, huquq bo'lib ong-shuurimizga singdi. Natijasini bugun odamlarning dunyoqarashi, fikri-zikri, turmush tarzida ko'rish mumkin. Har bir yurtidoshimizda harakat, intilish, yaratish ishtiyoqi bor. Bugungidan-da farovon hayot, yorug' kelajakka ishonch mustahkam.

Keyingi yillarda boshlangan qurilishlar, deyarli qayta qurilgan shaharlarimiz, qishloqlarimizning zamonaviy ko'rinishi, yo'lsizlik, ko'priksizlik, shaharsozlik ilmi, tadbirkorlik va ishbarmonlikning benihoya rivojlanishi, ilm-fan, madaniyat va san'at, sport va boshqa sohalarida erishilayotgan yutuqlar, yosh avlodning zafarlari, millatlararo ahil-inoqlik, bag'r Kensington, hech shubhasiz, istiqloq sharoifati.

Islohotlar jarayonida "Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" tamoyilini joriy etishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu ham bejiz emas. Chunki mamlakatimizda davlat va hokimiyat idoralari uzoq vaqt davomida xalq hayotidan uzilib qolgan. Binobarin, davlat va uning organlari, avvalo, xalqqa xizmat qilishi kerak. Bunday davlat va jamiyatning

"O'zbekiston Turkiy davlatlar tashkilotiga 2019-yili a'zo bo'lgandan so'ng tuzilma sezilarli darajada kuch va obro'ga ega bo'ldi. Zero, O'zbekiston tashkilotga qo'shilishi bilan turkiy mamlakatlar zanjiridagi muhim kamchilik bartaraf etildi. Mamlakatimiz nafaqat Markaziy Osiyo va Yevrosiyo geosiyosatida, balki TDT doirasida ham alohida ahamiyatga ega.

siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviyat-ma'rifiy ildizlari mustahkam va baqovvat bo'ladi. Shu sababli xalqning og'irini yengil qilish, muammolarini vaqtida va samarali yechish, hayot darajasi va sifatini yaxshilash barcha islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi.

Davlat organlari faoliyatida ochiqchilik va oshkorlik tobora kengayib bormoqda. Vazir va hokimlar, barcha bo'g'indagi mansabdor shaxslar fuqarolar bilan yuzma-yuz uchrashib, ularning dardu tashvishlari bilan qog'ozda emas, amalda jiddiy shug'ullanmoqda. Majburiy mehnat, xususan, bolalar mehnati, ishsizlik, kambag'allik, korrupsiya, aholini uy-joy bilan ta'minlash, ta'lim va tibbiyot bilan bog'liq muammolar ochiq tan olinib, birin-ketin bartaraf etilyapti. Natijada odamlarda adolatga, haqiqatga ishonch paydo bo'ldi. Turli darajadagi rahbar va mansabdorlarning faoliyatiga OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali xolisona baho berilmoqda. Asosiy, odamlar, jamiyat uyg'ondi.

2016-yil sentabrda Bosh vazir virtual qabulxonasining tashkil qilinishi xalq va davlat o'rtasidagi to'siqlarni olib tashlash imkonini berdi. Odamlarning dardini to'g'ridan to'g'ri Prezidentga yetib boradigan bo'ldi. Natijada real hayot, haqiqiy muammolar boricha namoyon bo'ldi!

Bunday yondashuv, boshqaruvning xalqona tutumi, o'z navbatida, jamiyat rivoji uchun aniq choralar ishlab chiqishga xizmat qildi. Xalq va davlat o'rtasidagi aloqalar mustahkamlandi, haqiqiy demokratiya tamoyillari amalda ishlay boshladi.

Hozir ko'pchilik salkam o'n yil avvalgi o'sha holatlarni esdan chiqargan bo'lishi mumkin. Jamiyatimizdagi bugungi ochiqchilik muhitini har doim ham sezavermaymiz, balki oldingi davr bilan taqqoslagandagina anqay olamiz.



O'zbekistonga kela boshladi. Ushbu islohotlar bilan bir qatorda tashqi iqtisodiy faoliyat erkinligi ta'minlanib, biznes uchun ma'muriy to'siqlar olib tashlandi.

Erkin konvertatsiya, avvalo, xalqaro savdo munosabatlarning to'laqonli a'zosi bo'lish uchun kerak. Zero, faqat shu orqali xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etib, undan kelib chiqadigan foyda va imtiyozlarga ega bo'lish mumkin.

Taraqqiyot strategiyasidagi inson qadriini yuksaltirish, xalqparvar davlat barpo etishga oid ustuvor maqsad va vazifalar ijrosini ta'minlash davlat organlari faoliyati

mutlaqo yangi tizimi yo'lga qo'yilgani va ular "mahalla yettilligi"ga berilgan natijasida 8,5 milliondan ziyod odam kambag'allikdan chiqdi. Boshqacha aytganda, 2025-yil yakunida yurtimizda kambag'allik darajasi 5,8 foizga tushdi.

Bunday natijalarga erishishda aholini zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish, ularga munosib ish o'rinlarini yaratish, tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimiy va uzoqni ko'zlagan siyosat hal qiluvchi omil bo'lmoqda. Kambag'allikni kamaytirish aholidagi tadbirkorlik ruhini uyg'otish, kasbga tayyorlash va ish o'rinlarini ko'paytirishga qaratilgan kompleks vazifadir.

Ijtimoiy himoya haqida gapirganda, pensionerlar manfaati kuchli himoyaga olinganini ham eslash joiz. Hozir aholimizning qariyb 11 foizi pensiya va nafaqa oladi. Bundan to'g'riy yil muqaddam esa pensionerlar 3 million bo'lgan. So'nggi vaqtda pensiya va nafaqa oluvchilar soni yiliga 200-250 ming nafarga o'sib bormoqda. Ularning soni ortishi bilan pensiya tizimida ham bir qancha o'zgartirishlarga ehtiyoj sezildi. 2017-yilgacha pensionerlarni qiynab kelgan muammolardan biri — ularga pul naqd shaklda berilmayotganida edi. O'sha yili 1-fevraldan boshlab mazkur masala yechim topdi — pensiya va nafaqalar istalgan shaklda, naqd yoki plastik karta orqali berila boshladi. Shu bilan birga, 2019-yildan boshlab nafaqasi to'liq saqlab qolingan holda pensionerlarning ishlagishi ham imkon berildi.

Keyingi yillarda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida so'z borganida, birinchi navbatda, xotin-qizlarning o'qishi, bilim olishi, mehnat qilishi, ularning sog'lig'ini saqlash, iste'dod va qobiliyatini ro'yobga chiqarish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglik bo'yicha qilinayotgan keng ko'lamli ishlar tilga olinmoqda. Buning sababi oddiy, albatta. Chunki dunyodagi har qanday xalq, davlat va jamiyatning taraqqiyot va madaniyat darajasi, avvalo, xotin-qizlarga munosabat bilan belgilanadi. Zero, xotin-qizlar barcha soha va tarmoqlarda eraklar bilan teng huquqqa ega, yuksak hurmat-ehtiromda yashagan mamlakatda, albatta, tinchlik, hamjihatlik, o'sish va yuksalish bo'ladi. Shu bois, jamiyatimiz hayotida faol ishtirok etayotgan, turli sohalarida yuqori natijalarga erishayotgan, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashga munosib hissa qo'shayotgan opa-singillarimiz har yili davlatimizning yuksak mukofotlari, shuningdek, "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlanmoqda. Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlangan qizlarning soni 400 ga yaqinlashgani ham ana shunday ishlar qatoriga kiradi.

Islohotlar tufayli o'tgan tarixan qisqa davrda yurtimizning Markaziy Osiyo mintaqasi va jahon miqyosidagi siyosiy o'rni va nufuzi keskin oshdi. Dunyoda yangi O'zbekistonga nisbatan ishonch ruhi va mamlakatimiz bilan hamkorlikka intilish kuchaydi. Birinchi navbatda, qo'shni

davlatlar bilan munosabatlarning yillar davomida yig'ilib qolgan muammolar hal etildi. Chegaralar ochildi. Qo'shnilarimiz bilan uzilib qolgan aloqalar tiklanib, bir mamlakatdan ikkinchi davlatga erkin-erkin borib kela boshladik. Viza masalalari hal etildi.

Savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalar ham jadal rivojlanmoqda. Azal-azaldan o'zaro qardosh va bironar mamlakatlarimiz ko'pgina mintaqaviy va global masalalar, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bo'yicha yaqin hamkorlikda harakat qila boshladi. Jahon siyosatshunosligida "Markaziy Osiyo ruhi" iborasi paydo bo'ldi.

2025-yil noyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvi bu jarayonga yangi mazmun va kuch bag'ishladi. Ana shu misollarning o'ziyoq ichki va tashqi siyosatning naqadar bog'liq va hamohang ekanini ko'rsatadi. Eng muhimi, ichki va tashqi siyosatimizdagi ana shunday uyg'unlik xalqimiz manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilmoqda va natijasini oddiy odamlar o'z hayoti va taqdirida his etmoqda.



O'zbekiston Turkiy davlatlar tashkilotiga 2019-yili a'zo bo'lgandan so'ng tuzilma sezilarli darajada kuch va obro'ga ega bo'ldi. Zero, O'zbekiston tashkilotga qo'shilishi bilan turkiy mamlakatlar zanjiridagi muhim kamchilik bartaraf etildi. Mamlakatimiz nafaqat Markaziy Osiyo va Yevrosiyo geosiyosatida, balki TDT doirasida ham alohida ahamiyatga ega. Shu bois, O'zbekistonning unga a'zoliqi turkiy dunyoning kelajagida tom ma'noda keskin burilish nuqtasi bo'ldi.

Tashkilot doirasida davlatimiz ilgari surgan 60 dan ziyod taklif va tashabbus TDT faoliyatiga yangi mazmun bag'ishladi. 2023-yil noyabrda Ostonada bo'lib o'tgan

Turkiy davlatlar tashkiloti davlatlar rahbarlari kengashi yig'ilishi doirasida Prezidentimizga turkiy xalqlar oilasining birligini mustahkamlash, turkiy mamlakatlarning manfaatlari va qarashlari xalqaro maydonda faol ilgari surishga qo'shgan ulkan hisssasi uchun yuksak mukofot — Turkiy dunyoning oliy ordeni tantanali topshirildi.

Mamlakat kelajagi, barcha soha va loyihalar muvaffaqiyati bilimi, ma'naviyatli insonlarga bog'liq. Shu bois, oxirgi yillarda ta'lim sifatini yaxshilash, o'qituvchilar mavqeiini yuksaltirish bo'yicha ko'p ishlar qilindi. Ayniqsa, oldinlari o'quv yili ibtidosi muallimning yozilmagan yillik ish rejasini paxta mavsumining boshlanishi belgilab berardi. Qahraton qishga qadar davom etadigan bu mavsumni o'qituvchi o'quvchilari bilan birga "yollanma terimchi" sifatida dalada o'tkazardi. Bahor boshlanishi bilan yana dala yumushlariga jalb qilindi.

Bundan tashqari, obodonlashtirish, soliq yig'ish, qurilish ishlarida dastyorlik ham o'qituvchilarning zimmasida edi. Bu xizmatlari uchun esa arzimagan maosh to'lanardi. Muallimning obro'si, sha'ni, qadri haminqadar baholangan tufayli aksariyat o'qituvchilar ishini tashlab, boshqa sohalarga o'tib ketdi.

Endi mamlakatimiz yangi davrga qadam qo'ydi. 2017-yil sentabrda boshlab o'qituvchilar o'ziga tegishli bo'lmagan barcha yumushdan ozod etildi. Ularning oldida faqat yosh avlodni yetuk va komil inson qilib tarbiyalash vazifasi qo'yildi. Shu tariq biz jamiyat rivojining tayanch nuqtasini topdik, bu ta'lim tizimidir! Pedagoglar mehnatining qadrlanishi, e'zozlanishi, ijtimoiy himoyaga olingani buning isboti desak, xato qilmagan bo'lamiz.

Maktab o'qituvchilarining oyilgi 3-4, oliy ta'lim professor-o'qituvchilarining oyilgi 4-5 baravar ko'paytirildi. Davlat OTM professori 2017-yilda 2,5 million so'm maosh olgan bo'lsa, 2025-yil 1-sentabrda o'rtacha 14,5 million so'm oylik olmoqda. Faol pedagoglarga ilmiy darajasi uchun byudjetdan 30-60 foiz o'shimcha haq to'lanmoqda. Ba'zi oliy ta'lim tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'i hisobidan yana boshqa ustamalar bermoqda.

O'qituvchilarning jamiyatda obro'si, ijtimoiy maqomini oshirish, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish maqsadida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga alohida modda kiritildi hamda Pedagogning maqomi to'g'risidagi maxsus qonun qabul qilindi. Barcha viloyatlarda iqtidorli bolalar uchun Prezident maktablari ochildi, ularning bitiruvchilari dunyoning eng kuchli universitetlariga kirish uchun grantlarni qo'lga kiritmoqda. Xususiy ta'lim rivojlantirildi, hozir 450 dan ortiq xususiy maktab va 60 dan

ziyod nodavlat oliy ta'lim tashkiloti faoliyat yuritmoqda.

Ha, bu yilgi mustaqillik bayrami baland marralar, katta natijalar va buyuk maqsadlar tantanasini sifatida keng nishonlanadi. Ularning ta'rif va tavsihini bir maqolaga sig'dirish mushkul. Eng muhimi, buni har birimiz hayotimiz, turmushimiz misolida ko'ryapmiz. Biz ana shunday ulkan imkoniyatlarga to'la, qadrimiz baland, qadimimiz tig'davrida yashayapmiz. Yangi O'zbekistonni barpo etishga kirishilgan tarixiy yangilanish jarayonining har bir yili katta yutuqlar, beqiyos o'zgarishlar bilan kechayotgani barchamizning ko'nglimizni tog'dek ko'taradi, albatta.

Yer azaldan daromad manbai bo'lgan. Ammo bu resurs tobora qisqarib boryapti. Qolaversa, hamma ham dehqonchilikni kasb qilmaydi, biroq hovlidagi tomorqasida mahsulot yetishtirish ko'pchilikning qo'ldan keladigan ish. Agar bundan unumli foydalanilsa, kichik maydondan ham yaxshigina hosil va daromad olish mumkin. Keyingi yillarda yurtimiz bo'yab ommalashayotgan shunday tajriba ortidan minglab oilalar qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'lib, yilda bir necha marta hosil yetishtiryapti.

Buning uchun katta dehqon yoki agronom bo'lish ham shart emas. Istak va ozgina harakat bo'lsa kifoya. Qolganiga tomorqachilik korxonalar, agrotadbirkorlar, ixtisoslashuvni chuqurlashtirishga qaratilgan "Agrostar" korxonalar ko'maklashmoqda. Ular talabgor xonadonlarga urug'lik yetkazib berishdan tortib, yetishtirilgan mahsulotni eksport qilishgacha bo'lgan jarayonni zimmasiga olmoqda. Hatto mahsulot yetishtirishni o'rgatish uchun oilalarga agronomlar ham birkiritiladi. Bu sifatli, hosildor va eksportbop mahsulot olishni ta'minlaydi. Qarabsizki, bu hamkorlikdan aholi ham, agrotadbirkor ham birdek manfaatdor.

Qishloq xo'jaligidagi mazkur zamonaviy usul ilmiy atamada kooperatsiya, xalq tilida esa tomorqachilikni rivojlantirish bo'yicha hududlar tajribasi sifatida ommalashib boryapti. Kooperatsiya so'zi ham aynan "hamkorlik", "birgalikda ishlash" ma'nolarini anglatadi. Bunda aholi va tadbirkorlar ixtiyoriy tarzda o'z maqsadlari va resurslarini birlashtirib, birga faoliyat yuritadi hamda baravar foyda ko'radi.

Bu usul yurtimiz qishloq xo'jaligi, ayniqsa, tomorqa yerlardan unumli foydalanish, yilda bir necha marta hosil olishda samara bermoqda. Agrokorxonalar va aholi hamkorligi ortidan hududlarda ixtisoslashuv ko'lami kengayib, tomorqalarda mahsulot yetishtirish ko'rsatkichi, eksport hajmi oshyapti.

Bugun yurtimizda 22 million tonnadan ko'proq meva-sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirilayotgan bo'lsa, shuning 70 foizi aholi tomorqasi va qishloq xo'jaligi yerlariga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkichni sifat jihatidan ham oshirish asosiy vazifaga aylangan. Eksport talablariga mos mahsulotlarni yetishtirish va qayta ishlash, jahon bozorida milliy brendimizni ommalashtirish, yangi bozorlarga kirib borish ana shu vazifalarning bir qismi.

Shu maqsadda davlatimiz rahbarining 2025-yil 14-fevraldagi tegishli farmoni hamda qarori bilan yurtimizda ilk bor "Uzagrostar xolding" kompaniyasi tashkil etilib, uning ta'sischi qismi 21 tumanida ixtisoslashtirilgan "Agrostar" korxonalarini ish boshladi. Bunday zamonaviy korxonalarining paydo bo'lishi mamlakatimiz amaliyotida tomorqachilik va dehqonchilikni rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab berdi. Ular qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish va eksport qilish ulkuzsizligini ta'minlash, jahon bozorida milliy brendni yaratishga qaratilgan harakatlarning asosiy kuchiga aylanishi maqsad qilindi.

Bu borada "Agrostar" korxonalarini bevosita tomorqa yer egalari, dehqon va fermerlar bilan kooperatsiya asosidagi hamkorlikda ishlaydi. Ularga tuproq tahlilidan tortib, yuqori qiymatli bozorlarni topish va aholi tomorqasida yetishtirilgan mahsulotlarni yagona milliy brend ostida eksport qilishgacha ko'maklashadi. Bu mahsulot ekilishidan to'g'ri yetilguniga qadar ixtisoslashgan kompaniyalar tomonidan nazorat qilinadi degani. Buning uchun "Uzagrostar xolding" kompaniyasi tomonidan o'nlab xorijiy mutaxassislar, malakali mahalliy agronom, texnolog, usta-dehqonlar bilan shartnomalar imzolandi, ular agrokonsultant sifatida ish olib boryapti.

Xolding tarkibidagi korxonalarining har biri muayyan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan. Ya'ni har bir



Bugun yurtimizda 22 million tonnadan ko'proq meva-sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirilayotgan bo'lsa, shuning 70 foizi aholi tomorqasi va qishloq xo'jaligi yerlariga to'g'ri keladi.

Sanoatlashayotgan agrotarmoq

QUVA TAJRIBASI
10 SOTIX YERDAN 250 MILLION
SO'MGACHA DAROMAD OLIISH MUMKIN

Yetkazib beruvchi ham, sotib oluvchi ham aniq

Vodiyning mashhur tumanlaridan birida joylashgan "Quva — Agro Star" MCHJ korxonasi anor, gilos, shaftoli kabi mevalarni yetishtirishda yangicha yondashuvlarni yo'lga qo'yg'an. Biroq faoliyati bu bilan cheklanmaydi. Majmuada yiliga 12 turdagi 5000 tonna mahsulot yetishtirilib, ularni saqlash, qayta ishlash, qadoqlash va eksportgacha bo'lgan jarayon yagona zanjirda birlashtirilgan. Har bir bosqich Italiya, Ispaniya, Germaniya va Xitoydan keltirilgan eng zamonaviy texnologiyalar asosida olib boriladi.

Korxonaning katta-katta yer maydonlarida intensiv gilos, shaftoli hamda boshqa mevali daraxtlar tashkil etilgan. Ular tomchilari sug'orish tizimiga asoslangan. Bu bog'lardagi mevalarga qarab, zamonaviy usulda yetishtirilayotganini payqash qiyin emas. Nafaqat ko'rinishi, balki ta'mi ham o'zgacha mevalar xalqaro talablarga mosligi bilan jahon bozorida ancha xaridorgir.

Ammo mahsulotlarning asosiy qismi aholi tomorqasida yetishtiriladi. Korxonada

kasalliklarga chidamli ko'chat yetishtirish bilan bog'liq. Tumanda ko'chatchilikka ixtisoslashgan mahallalar bor. "Agrostar" korxonasi ularning xonadonlarga gilos, shaftoli kabi mevali daraxtlar, gul navlari payvandtagini yetkazib beradi. Bu payvandtagi korxonaning "in-vitro" laboratoriyasida zamonaviy usul hamda maxsus sharoitda tayyorlanadi. 40 sotix maydonda esa mikroqilimli issiqxonalar qurilgan bo'lib, unda yiliga 1 millionta payvandtag tayyorlash imkoniyati mavjud.

Xonadonlarda ko'chat kooperatsiya shartnomasi asosida yetishtiriladi, — deydi "Quva — Agro Star" MCHJ direktori o'rinbosari Jahongir Yoqubov. — Bunda biz aholiga sifatli navdagi payvandtag yetkazib beramiz. Odamlar esa undan o'z tomorqasida ikki yil davomida ko'chat tayyorlaydi. Ushbu ko'chatlarni kelishilgan narxda sotib olamiz. Payvandtag xarajati chegirib tashlanganda ham xonadon egalari ko'chatdan bir necha barobar ko'p daromad ko'rishi mumkin. Tayyor ko'chatlar esa tomorqa yer egalari, fermer va dehqon xo'jaliklariga mahsulot yetishtirish hamda bog' barpo etish uchun yetkazib beriladi. Bu jarayon ham bevosita korxonaga ishtirokida bajarilib, ko'chatni xarid qilgan xonadonlardan yetishtirgan mahsulotlarini o'zimiz sotib olamiz yoki eksportga yo'naltirishga ko'maklashamiz.

Sifatli va eksportbop mahsulot yetishtirishning asosiy mexanizmlarini korxonaga zimmasiga oladi. Aholi esa ekinlarni tomorqasida parvarishlab, tayyor holatga keltirib berishi kerak. Buning yaxshi jihati shuki, odamlarni ko'chatning sifatisizligi, agrotexnik tadbirlar bilan bog'liq tajribasizlik va eng asosiysi, tayyor mahsulotni sotish muammosi bezovta qilmaydi. Aholi o'z tomorqasidan foydalanadi va buning uchun yaxshigina daromadga ega bo'ladi. Hududlarning bir mahsulotga ixtisoslashishi esa sotuv va eksport imkoniyatini kengaytirmoqda.

Tumanning O'zbekiston, Turk, Qaqir mahallalari gulchilikka ixtisoslashgan. Aksariyat xonadonlarda gul ko'chati tayyorlanadi. "Agrostar" bu yo'nalishda ham qator loyihalarni amalga oshirmoqda. Sifatli gul ko'chatlarini yetishtirish bo'yicha talabgorlarga bo'lib to'lash yoki imtiyozli kredit shartlari asosida mikroqilimli issiqxonalar qurib berilyapti.

Hozir ko'chat yetishtirishda peshqadam xonadonlar soni ancha ko'paygan. Shu bois, Quva tajribasi tumanning o'zidan tashqari boshqa hududlarda ham keng yoyilib bormoqda.



Jarayon davomida odamlarga kichik yer maydonidan ko'proq daromad olish amaliyoti o'rgatilyapti. "Agrostar" korxonalarining o'ziga xos jihati ham shunda — ular tanlab olingan hududlarda aholini o'z tomorqasida belgilangan turdagi mahsulotni yetishtirishga jalb qilish bilan cheklanmay, odamlarni shu yo'nalishda o'qitib, tajribali hududlar, xonadonlar amaliyoti bilan tanishtirib boradi. "Uzagrostar xolding" kompaniyasiga birkiritilgan tijorat banklari esa talabgorlarga moliyaviy masalalarda ko'mak beradi.

"Agrostar" korxonalarini oldiga qo'yilayotgan asosiy vazifalardan biri ham shu — aholiga urug' tanlash, agrotexnik tadbirlarni to'g'ri bajarish, sifatli hosil olish, mahsulotni bozor talabiga mos holda tayyorlash va eksport standartlariga muvofiq qadoqlash bo'yicha amaliy ko'nikmalar berishga qaratilgan. Boisi, endi tomorqa shunchaki qo'shimcha daromad manbai emas, balki oilaviy tadbirkorlikning samarali yo'nalishiga aylanishi kerak.

Bugun "Quva — Agro Star" korxonasi sa'y-harakatlari bilan odamlarga 10 sotix tomorqadan 250 million so'mgacha daromad olish amaliyoti o'rgatilyotgani buning yaqqol misoli. Davlatimiz rahbari agrokorxonaga erishayotgan natijalarni yuqori baholagani boisi shunda.

Barcha xizmat — bir manzilda

Farg'ona viloyati azaldan sara mevalari bilan nom chiqargan. Vodiyning uzum va anoridagi

ta'mni boshqa joydan topish qiyin. Ularning tilni yoradigan shirasi xorijda ham mashhur. Bu mevalarni qayta ishlash olinadigan tayyor mahsulot esa yanada xaridorgir.

"Quva — Agro Star" korxonasining zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarida vodiya pishib yetilgan eng sara mevalar qayta ishlanadi. Jumladan, quritilgan meva hamda boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqariladi. Uzum mayizga, o'rliklar turshakka aylantirilganida ham ta'mini saqlab qoladi. Chunki bu eng ilg'or usul va texnologiyalar orqali bajariladi. Qadoqlangan tayyor mahsulotlar esa xorij bozoriga o'zimizning milliy brend — "Dehkan" nomi ostida eksport qilinmoqda.

Mahsulotlarimiz Global GAP, ISO 22000, Halal hamda HACCP kabi xalqaro sertifikatga ega bo'lib, bu jahon maydonida milliy brendimizga ishonch va qiziqishni yanada oshiradi, — deydi Jahongir Yoqubov. — Yildan yilga eksport geografiamiz kengayib bormoqda. O'tgan yili ilk bor Yaponiya va Janubiy Koreya kabi talabchan bozorlarga aviya transport orqali mahsulot eksport qildik. Chet davlatlarda anor, gilos, quritilgan mevamizga talab katta. Bu yo'nalishda hozir bozorda raqobat kuchli ekani ham bor gap. Biz mahsulotlarni zamonaviy usulda qayta ishlash, qadoqlash barobarida asl ta'mi va yuqori sifatini saqlab qolishga harakat qilamiz. Bu xaridorlarimizga ham ma'qul. Joriy yil uchun ko'plab eksport shartnomalari imzolaganmiz. Yil davomida tashqi bozorga 25 million dollarlik mahsulot yetkazib berish rejalashtirilgan.

Bu reja nafaqat korxonaning o'zida, balki aholi tomorqalari, dehqon va fermer xo'jaliklarida yetishtirilayotgan mahsulotlar hisobiga bajariladi. Korxonaviy o'zida va Quvasoy tumanlaridagi 12 ming gektar

boqqa xizmat ko'rsatish orqali mevalarni yetishtirishdan tortib, ularga xaridor topish va eksport qilishgacha ko'maklashadi. Mahsulotlar patentlanib, qayta ishlanadi va milliy brendda qadoqlanadi. Qolaversa, "Agrostar" o'z mahsulotlarini sotishga qiyinalayotgan aholi xonadonlari bilan ham ishlayapti. Tomorqalarda yetishtirilayotgan mahsulotlarni saralash, saqlash, qayta ishlash va sifatli tayyor mahsulotga aylantirish orqali sotish va xaridor topish xizmatlarini ko'rsatmoqda.

Buning uchun yangi agrokompleks loyihasi amalga oshirildi. Quva tumani "Turk" MFYdagi 3,5 gektar maydonda yirik va zamonaviy majmua qurildi. Unda katta hajmdagi sovitskichi ombor mavjud. Mevalarni saralash, saqlash, qayta ishlash va qadoqlash liniyalari ishga tushirilgan. Agrokompleks bir vaqtning o'zida 15 eksportorga xizmat ko'rsatish quvvatiga ega.

Korxonaga loyihalarni kengaytirishda davom etmoqda. Qisqa muddatda Quva tajribasini yo'lga qo'ygan ushbu hudud nafaqat tuman, balki yurtimizda intensiv bog'lar barpo etish, mahsulot yetishtirishdan ishlab chiqarishgacha bo'lgan zanjiri faollashtirish, jahon bozorida milliy brendlarni tanitishda yetakchilardan biriga aylangan. Oldinda esa ko'zlangan rejalar ko'p. Agrokorxonaga kooperatsiya usulidagi loyihalarni ko'paytirish, aholi tomorqasida sifatli, eksportbop mahsulotlar yetishtirish orqali ham ishlab chiqarish quvvatini oshirish, ham odamlarni daromadli qilishda davom etadi.

Iroda TOSHMATOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



BALIQCILIK: BANDLIK, IQTISODIYOT, EKSPORT, INVESTITSIYA

Navoiy viloyatida baliqchilik tobora ommaviylashib bormoqda. Prezidentimizning 2022-yil 13-yanvardagi "Baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosi doirasida viloyatda baliq mahsulotlari turlari ko'paytirilmoqda va eksport salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Mavjud suv havzalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, intensiv texnologiyalar asosida baliq yetishtirish hajmini ko'paytirish hamda baliqchilik xo'jaliklari ozuqa bazasini mustahkamlash yo'lida tizimli ishlar qilinmoqda.

Baliqchilik tashqi va ichki bozorda yuqori talabga ega biznes sanaladi. Navoiy viloyatining ko'pgina hududlarida tabiiy suv havzalari mavjud va iqlim sharoiti ham bu yo'nalish uchun juda qulay. Havza yoki ombor tanlash, ya'ni suv sifati va hajmi samaradorlik uchun muhim. Baliq turini tanlash esa kamomadsiz daromad manbai demak.



Intensiv texnologiya

Bunda suv va oziq nazoratini, ya'ni baliqlar sog'lom o'sishi uchun suv tozaligi va ozuqa sifatini nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Navoiylik tadbirkorlar mana shunday puxta reja va e'tibor bilan faoliyatini rivojlantirib, ko'zlangan mahsulotni olishga erishyapti.

2025-yil davomida baliqchilik yo'nalishida 9 loyiha ishga tushirildi va 65 fuqaroning bandligi ta'minlandi. Ayniqsa, Xatirchi tumanidagi mavjud imkoniyatlar va tabiiy suv havzalari tufayli soha jadalik bilan rivojlanmoqda.

Xatirchi tumanida 56 ta baliqchilik xo'jaligi mavjud. Hozir tumanida baliqchilik yo'nalishi bo'yicha 3 ta xorijiy korxonaga tashkil etilgan. Joriy yilda xitoylik investorlar 60 gektar maydonda baliqchilik havzasini quryapti.

Baliqchilikni yo'lga qo'ygan tadbirkorimiz ozuqa masalasi ham tashvishlantirishi tabiiy. Xatirchi tumanida umumiy qiymati 10 million AQSH dollariga teng bo'lgan, baliqlar uchun vitamin va oqsillarga boyitilgan ozuqa-yem ishlab chiqarish loyihasi muammoga yechim bo'ldi. 2024-yilda davlatimiz rahbarining

Navoiy viloyatiga tashrif davomida ushbu loyiha qurilishiga start berilgan ega. O'radan bir yil o'tib, loyiha to'liq quvvatda ishga tushdi.

— 2021-yildan buyon Xatirchi tumanida faoliyat yuritimiz, — deydi xitoylik investorlar vakili, ish boshqaruvchisi Guo Yo Xang. — Shu kungacha baliqchilik yo'nalishida 4 ta loyihani yo'lga qo'yganmiz va bu beshinchisi. Har bir loyihani amalga oshirar ekanmiz, viloyat, tuman hokimliklari va tegishli tashkilotlar mutasaddilari bizga ko'maklashadi va qo'llab-quvvatlaydi. Korxonamiz yiliga 21 ming tonna baliq yemi ishlab chiqarish quvvatiga ega. Bu esa hududda baliqchilikni rivojlantirish orqali aholining bandlik darajasi o'sishiga ham xizmat qiladi. Korxonada 20 nafar mahalliy aholi doimiy ish o'miga ega. O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi hamkorlik tumanlarda ham o'z aksini topayotgani bizni quntovtiradi. Avvalgi loyihalarni intensiv usulda baliq yetishtirish bo'lsa, yangi korxonamiz baliqlar uchun vitamiga boy ozuqa



yetishtirishga mo'ljallangan. Keyinchalik boshqa loyihalarni ham amalga oshirishni rejalashtirmoqchimiz. Buning uchun barcha imkoniyatlar bor.

Navbahor tumanida ham 80 ta xo'jalik yurituvchi subyekti baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanadi. Shundan 72 ta baliqchilik xo'jaligida umumiy 857 gektar maydonda sun'iy hovuzlar tashkil etilgan. Ayni paytda 16 ta baliqchilik xo'jaligida 394 gektar maydonda intensiv texnologiyalar joriy qilingan.

Tumanda baliqchilik sohasi bosqichma-bosqich intensivlashib bormoqda. O'tgan yili 250 gektar maydon, joriy yilda 400 gektarga yaqin baliqxona intensiv usulga o'tkazildi.

Shuningdek, 6 ta baliqchilik xo'jaligiga quyosh panellari o'rnatilgan, ular suvni tozalash uskunasini energiya bilan ta'minlaydi.

Ayni vaqtda tumanda investitsiya dasturlari asosida Xitoyning yirik ishlab chiqarish quvvatiga ega korxonasi faoliyati yo'lga qo'yilgan va uning birinchi loyihasi ishga tushadi. 2 million dollar o'z mablag'lari va 1,85 million dollar xorijiy investitsiya asosida 2,80 gektar maydonda tashkil etilgan korxonaga bugun nafaqat Navbahor, balki boshqa hududlarga ham baliq ozuqalarini yetkazib beryapti.

Ushbu loyihani to'liq ishga tushirish 2025-2026-yillarga mo'ljallangan bo'lib, unda bir yilda 30 ming tonna baliq ozuqa yemi

ishlab chiqarish ko'zda tutilgan. Qiymati 5 million dollarlik, ishlab chiqarish quvvati 12 ming tonnalik birinchi loyiha 2025-yilda ishga tushirildi. Qiymati 7 million dollarlik, ishlab chiqarish quvvati 18 ming tonna bo'lgan ikkinchi loyiha ishga tushirilish arafasida. Hozir 30 nafar mahalliy aholi ish bilan band. Ikkinchi loyiha ham ishga tushgach, ular soni 60 nafarga yetadi. Tumanda jami 1065 gektar baliqchilik suv havzalari mavjudligi, bir kunlik baliq yemiga talab 3,5 yillik talab esa 2500 tonnadir.

Bu hozircha O'zbekistondagi eng yirik baliq yemi ishlab chiqaruvchi korxonaga hisoblanadi.

Viloyatda tarmoqni rivojlantirish borasida joriy yilgi rejalar ko'lami ham katta. Jumladan, hududiy investitsiya dasturi doirasida Karmana tumanida 4 ta, Konimex tumanida 2 ta, Navbahor tumanida 5 ta, Uchquduq tumanida 1 ta, jami 12 ta investitsiya loyihasi rejalashtirilgan.

— Intensiv baliqxona samaradorligi 10 barobar ko'p, — deydi tadbirkor Ma'rufjon Karimov. — Quyosh panellari o'rnatilmaganidan keyin 50 foiz elektr energiyasi tejalyapti. Ortib qolgan elektr energiyani sotib, undan foyda ham olyapmiz. Baliqchilikning o'ziga xos mashagatqalari bor. Baliqlarni har xil kasalliklardan asrash, to'g'ri oziqlantirish, vaqtda suvini almashirish lozim. Hozir 1 gektar suv havzasida yiliga 30 tonnagacha baliq yetishtiryapmiz. Ushbu yo'nalishda yangi loyihalarni bor va bosqichma-bosqich amalga oshirib boramiz.

Baliqchilik sohasi Navoiy viloyatida ish o'mi, iqtisodiyot, eksport, investitsiya sifatida rivojlanib boryapti. Ushbu sardoromad tarmoq navoiylik tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



yuz.uznews



yuz.uz_news



yuz.uz_news



Tahlil



Sohibjamol JUMAYEVA,
Markaziy bankning gender tenglik masalalari bo'yicha maslahat kengashi raisi o'rinbosari

ta'minlash yangi O'zbekiston islohotlarining ustuvor yo'nalishiga aylanganini ta'kidlaydi. Ayolga e'tibor, avvalo, inson shaxsiga, qadriga yuksak ehtiromning oliy namunasidir. Xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rini mustahkamlash faqat siyosiy vazifa emas, balki erkin va farovon jamiyat barpo etish yo'lidagi izchil demokratik yangilanishlarning ajralmas qismi sanaladi.

2017-yil — O'zbekiston uchun yangi tarixning boshlanishi. Mamlakatimizda keng ko'lami



xotin-qizning yangi ish joyiga ega bo'lishi millionlab oilalarda daromad va hayot sifati yaxshilanishi demakdir.

Xalqaro valyuta jamg'armasining 2026-yilgi IV modda missiyasi xulosasi O'zbekiston iqtisodiy o'sishini "barqaror" deb baholadi. Ammo XVJ ayni paytda ayollarning mehnat bozorida ishtirok etishi pastligi va norasmiy bandlik yuqoriligi iqtisodiy o'sish salohiyatini cheklayotganini ham qayd etdi. Bu ochiq ogohlantirish va bir vaqtning o'zida imkoniyatdir. Chunki gender tafovutni bartaraf etish orqali iqtisodiy o'sishni yanada jadallashtirish mumkin.

Ikkinchi mexanizm — "Hamroh" dasturi. 2026-2027-yillarda 6000 xotin-qizning tadbirkorlik loyihasini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga 2 trillion so'm yo'naltiriladi. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larini Markaziy bank asosiy stavkasida 7 yil muddatga ajratadi. Bu dasturning ahamiyatini yanada tushunarli qilish uchun quyidagini aytilish kifoya: 7 yillik muddat xotin-qizga o'z biznesini barpo etish, rivojlantirish va daromad olishga real vaqt beradi.

Ayol tadbirkorlar uchun kredit nafaqat pul, balki imkoniyat, mustaqillik va o'ziga ishonchning ramzi. Bu ramzni reallikka aylantirish uchun moliya tizimi mustahkam asos vazifasini o'tashi kerak.

Ayniqsa, davlatimiz rahbari 2026-yilda 1,5 million xotin-qizni daromad bilan ta'minlashni maqsad qilib belgilab bergani va shundan

366 ming 51 nafarga yetdi, ya'ni 57 foiz oshdi. Tadbirkorlik ko'nikmalarini egallagan xotin-qizlar soni esa 334 ming nafar bo'ldi.

Umumta'lim maktablarida kasb-hunar o'qitishning 400 ta maktabda joriy etilishi va o'quvchi qizlar nisbatining 59 foiz oshishi — ijtimoiy investitsiya. Bu sarmoyaning moliyaviy tizim uchun ijobiy samarasi 5-7 yil ichida ko'rinadi. Bugun maktabda kasb-hunar o'rganayotgan 15 yashar qiz etraga ish joyi yaratuvchi, soliq to'lovchi va bank mijozidir demakdir.

Gender tenglik faqatgina iqtisodiy masala emas. U davlat boshqaruvida, siyosiy qarorlar qabul qilishda ayollarning real ishtirokini ham taqozo etadi. Yurtimizda bu borada ko'rsatkichlar tarixiy jihatdan nihoyatda katta o'zgarishlarni namoyon qilmoqda.

Parlamentlararo Ittifoq (IPU) reytingida 128-o'rindan 35-o'ringa ko'tarilish dunyoda juda kam mamlakatga nasib etgan sakrashdir. 193 davlat orasida 93 pog'onalik yuksalish faqat siyosiy iroda emas, tizimli islohotlarning mevasi. Bu natija O'zbekistonga nafaqat reyting bermoqda, balki xalqaro investorlar va rivojlanish moliyasi institutlari uchun mamlakatimizning jozibadorligini oshirayotgan real ishoratdir.

"Gender tenglik va boshqaruv" indeksida esa O'zbekiston 103-o'rindan 52-o'ringa ko'tarildi. Bu ko'rsatkichlar ESG mezonlariga mos davlat sifatida O'zbekiston imjini mustahkamlaydi. Bu esa xorijiy investitsiya jalb etishda tobora muhim omilga aylanib bormoqda.

Ijro hokimiyati tizimida rahbar ayollar safi kengayishi va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlaridagi ishtiroki ortishi davlat tomonidan qarorlar qabul qilinishida inkluzivlikni ta'minlamoqda. Mahalliy kengashlarda ayollar 38 foizni tashkil etishi mahalla, tuman va viloyat ko'lamidagi qarorlar ayollarning real manfaatlari va hayot tajribasi asosida shakllanmoqda degani.

Prezidentimiz murojaatida ishlab olinayotgan ayollar imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida hayotimizga shiddat bilan kirib kelayotgan sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini o'rgatuvchi, yangi startup loyihalarni qo'llab-quvvatlovchi platforma tashkil etish taklifi ilgari surildi. Bu tashabbus amaliy xarakterga ega. Zero, startup nafaqat ish joyi yaratish, balki innovatsiya, eksport salohiyati va iqtisodiy o'sish namoibidir.

Raqamli biznes xotin-qizlar uchun ayniqsa qulay, chunki u mahalliy yoki xorijiy bozorga mobillik cheklolvarisiz chiqishga yo'l ochadi. Internet do'koni, onlayn xizmatlar, filrals ishlar, raqamli mahsulotlar Xorazmdagi yoki Qashqadaryodagi ayolga ham Toshkentdagidek global bozorga kirish imkonini beradi.

Osiyo xotin-qizlari forumi — mamlakatimiz yutuqlarini namoyon etish maydoni. Bu mintaqa mamlakatlari tajribalarini o'zaro almashish, umumiy muammolarga yechimlar izlash va hamkorlik uchun yangi yo'llarni ochish platformasidir.

O'zbekistonning gender islohotlari tarixi raqamli tilida nihoyatda jozibali. Ammo har bir maqsadli ko'rsatkichning ortida real ishlar, real islohotlar va real insonlar mavjud.

Biz uchun forum ramziy, zero, mamlakatimiz oxirgi o'n yilda gender tenglik yo'lida jahonda kam mamlakatga nasib etgan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Xalqaro indeks va reytinglardagi yuksalish millionlab ayollarning hayoti yaxshi tomonga o'zgariganining ifodasi desak, o'rinli.

GENDER SIYOSATI: RAQAMLAR ORTIDA REAL ISHLAR SAMARASI TURIBDI

Boshlanishi 1-betda

Osiyo xotin-qizlarining Samarqandda 2023-yilda o'tkazilgan birinchi forumi o'ziga xos tajriba bo'ldi. U mintaqa ayollarining umumiy muammolari, mustaqil yechim izlashdagi umumiy ishtiyoqlari va hamkorlikka tayyorliklari borligini isbotladi. Forumda Sharqiy Osiyo, Janubi-sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyo mamlakatlari vakillari birlashib, umumiy platforma yaratdi. Bu maydon xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo'llab-quvvatlandi.

Ikkinchi forum esa birinчисining mantiqiy davomi va yangi bosqichi. Bu safar muloqot maydoni doimiy platformaga aylantirish yo'lida muhim qadam qo'yildi. Buxoro forumi doirasida kun tartibiga chiqarilgan masalalar ko'lamiga e'tibor qaratsak, gender tafovutni bartaraf etishning nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy, moliyaviy va texnologik jihatlari keng muhokama etilganini ko'ramiz.

Forumda parlament delegatsiyalari a'zolari, hukumat rahbarlari, BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari, ishlab olinayotgan ayollar, olimlar, ijtimoiy soha faollari ishtirok etdi. Bunday keng vakillik forumning nafaqat rasmiy, balki haqiqiy ijtimoiy muloqot maydoni ekanini tasdiqlaydi.

Anjumanning asosiy mavzulari ayollarning fan, ta'lim va innovatsion faoliyatdagi ishtiroki, raqamli texnologiyalardan foydalanishi, iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish orqali kambag'allikni kamaytirish, tadbirkorlik, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi o'rni faqatgina ijtimoiy masala emas, balki iqtisodiy strategiyangiz ajralmas qismi ekanidir.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva forum muhokamalarida ishtirok etib, xotin-qizlarning huquq va erkinliklari, manfaatlarini

islohotlarga yo'l ochildi. Bu islohotlarning markazi inson, uning huquqlari, erkinligi va taraqqiyot uchun teng imkoniyatlaridir. Ana shu umumiy siyosiy irodadan xotin-qizlarga oid islohotlar ham kuch oldi.

2018-yildan 2025-yilgacha, atigi sakkiz yil ichida yurtimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoyasiga qaratilgan 110 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Bu huquqiy baza moliyaviy islohotlar, iqtisodiy o'zgarishlar va ijtimoiy transformatsiyangiz yuridik poydevoridir.

Konstitutsiyamizning 2023-yilda qabul qilingan yangi tahriri bu jarayonda muhim evolyutsion qadam bo'ldi. Konstitutsiya ayollar huquqlari, onalik va bolalikni himoya qilishning institutsional kafolalarini mustahkamladi. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida esa xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari qatoriga kiritildi.

Faqat qonunlar emas, amaliy natijalar ham ko'zga tashlanadi. O'zbekiston "Ayollar, biznes va qonun" (WBL) xalqaro indeksida 2019-yildagi 134-o'rindan 2026-yilda 48-o'ringa ko'tarildi. Bu 86 pog'onalik sakrash degani. Dunyo tarixida juda qisqa muddatda bunchalik katta yutuqni namoyon qilgan mamlakatlar soni juda kam.

Jahon bankining "Ayollar, biznes va qonun" indeksi to'rt jihatni, ya'ni mobillik, ish, nikoh va

mulk huquqlarini baholaydi. O'zbekistonning bu reytingda keskin ko'tarilishi nafaqat qonun-qoidalar isloh qilinishini, balki ayollarning real iqtisodiy imkoniyatlarini kengayganini ko'rsatadi.

2023-2025-yillar davomida O'zbekistonda xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi keskin o'zgardi. Jami band xotin-qizlar soni 6,4 million nafarga, 2023-yildagidan 10,3 foiz oshdi. Ishsizlik darajasi 10,4 foizdan 6,5 foizga tushdi. Bu yaratilgan imkoniyatlarning real samarasi ifodasidir. Ayniqsa, har yili 400 mingdan ortiq

Mamlakatimizning xotin-qizlar iqtisodiy siyosatida moliyaviy inkluzivlik alohida o'rin tutadi. 2023-2025-yillar davomida kredit olgan xotin-qizlar soni 380 ming 687 nafarga, ya'ni 97 foiz oshdi. Subsiya va ssuda olgan xotin-qizlar soni esa 192 ming 800 nafarga, ya'ni 2019-2021-yillardagiga nisbatan 164 foiz oshdi.

Davlat xotin-qizlar tadbirkorligini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda uchta asosiy mexanizm orqali ishlaymoqda. Birinchisi, imtiyozli kreditlash. 2026-yil 1-yanvardan xotin-qizlarning



Mulohaza

KREATIV VA MOSLASHUVCHAN TAFAKKUR: TA'LIMDA SUN'YIY IDROK KONSEPSIYASI

Dunyo ulkan burilish pallasida. O'n yillar avval ilmiy laboratoriyalar doirasidagina tilga olingan, oddiy inson uchun aql bovar qilmaydigan sun'iy intellekt texnologiyalari hayotimizni mutlaqo yangi o'zanga burib yubordi. Kundalik turmushimizning eng oddiy jarayonlariga qadar kirib bordi. Ba'zan sezmaymiz ham, masalan, tongda gadjetimizdagi xabarlar tartiblanishi, navigatormning tirbandlikni hisobga olib yo'l tavsiya qilishi yoki internet platformalarining qiziqishlarga mos axborotlarni taqdim etishi ortida murakkab algoritmlar va intellektual tizimlar ishlaymoqda.



USHBU MAQOLANI QORAQLAQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Maftuna TURSUNOVA,
Renessans universiteti axborot texnologiyalari kafedrasini o'qituvchisi

Yetakchi texnologik markazlar bu jarayonni yangi sanoat inqilobi deya baholaydi. Xalqaro tahlillarda sun'iy intellekt XXI asr iqtisodiyotining asosiy drayverlaridan biri sifatida tilga olinmoqda. Jahon universitetlari, yirik korporatsiyalar va davlat boshqaruv tizimlari uchun ushbu texnologiyalar allaqachon strategik ustunlik manbaiga aylangan. Shu bois, bugungi global raqobatda intellektual texnologiyalarni tez o'zlashtira olgan davlatlar iqtisodiy va ilmiy ustunlikni qo'lga kiritmoqda. Mutaxassislarning qayd etishicha, yaqin yillarda sun'iy intellekt milliardlab dollarlik yangi bozorlarni shakllantiradi, mehnat munosabatlarini yangilaydi va butun boshqaruv tizimlariga ta'sir ko'rsatadi.

Xususan, sun'iy intellekt tibbiyot, ta'lim, moliya, logistika, qishloq xo'jaligi, sanoat va media kabi ko'plab yo'nalishlarda chuqur qo'llanadi. Tibbiyotda AI tizimlar rentgen va MRT tasvirlarini tahlil qilib, kasalliklarni erta aniqlashga yordam bermoqda. Moliyaviy platformalar xavflarni prognozlayapti. Qishloq xo'jaligida hosildorlikni

sun'iy yo'l do'st ma'lumotlari asosida hisoblash texnologiyalari kengaygan. Ta'lim sohasida esa individual o'quv trayektoriyalarini shakllantirish, bilimlarni tahlil qilish va masofaviy o'qitish imkoniyatlarini oshiruvchi intellektual platformalar jadval rivojlanmoqda. Mazkur jarayon, o'z navbatida, bilim olish va ish faoliyati haqidagi tasavvurlarni tubdan o'zgartiryotir.

O'zbekistonda ham raqamli transformatsiya davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rilmogda. Davlatimiz rahbari tomonidan o'tkazilgan yig'ilish va videosektorlarda sun'iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyot va ta'lim tizimiga keng joriy etish masalasiga alohida

urg'u berilayotgani bejiz emas. Negaki yoshlarni dasturlash, zamonaviy AT yo'nalishlar va innovatsion fikrlashga jalb qilish bo'yicha ilgari surilayotgan tashabbuslar mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasi bilan chambarchas bog'liq. Bugun vatanimizda shu yo'nalishda parklar, raqamli texnologiyalar markazlari, startup eko-tizimlari va zamonaviy o'quv platformalariga qaratilayotgan e'tibor aynan shu ehtiyoj hosilasi.

Zamonaviy dunyo taraqqiyotiga bo'yalsh uchun shunday texnologiyalarni boshqara oladigan, ularidan samarali foydalana biladigan va yangi g'oyalarni yaratadigan avlod zarur. Shu sababli mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida mutlaqo yangi

vazifalar paydo bo'ldi. Boisi, hozirgi kunga kelib, dunyoning yetakchi universitetlari bilim berishning yangi modelini shakllantirish ustida ishlaymoqda. Masalan, generativ AI texnologiyalar murakkab mavzularni soddalashtirish tushuntirish, talabning bilim darajasini real vaqt rejimida tahlil qilish va individual o'quv trayektoriyalarini shakllantirish imkonini yaratasa, ayrim universitetlarda virtual tyutor tizimlari talabaga kunning istalgan vaqtda yordam bera oladi.

Keyingi yillarda yurtimizda oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'yicha keng ko'lami ishlar qilinmoqda. Zamonaviy

400 ming nafarini tadbirkorlikka jalb etish rejalashtirilgan, buning uchun 25 trillion so'mdan ortiq mablag' yo'naltirilayotgani strategik nuqtayi nazaridan nihoyatda muhim. "Hamroh" dasturi doirasida xotin-qizlarning 3000 ta loyihasiga 1 trillion so'm ajratilishi rejalashtirilgan.

Xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligi, avvalo, ta'limdan boshlanadi. Yurtimizda oxirgi yillarda ta'lim tizimida yuz bergan o'zgarishlar ushbu prinsipning amaliyotga kirganini ko'rsatmoqda.

Oliy ta'limda xotin-qizlar ulushi 2023-yildagi 48,8 foizdan 2025-yilda 53,3 foizga oshdi. Ya'ni bugun mamlakatimiz oliy ta'lim tashkilotlarida g'olib bolalardan ko'ra ko'proq qizlar tahsil olayotir. Bu gender tenglik nuqtayi nazaridan nihoyatda muhim belgi. Ayniqsa, magistraturada tahsil olayotgan xotin-qizlar soni oxirgi besh yilda 11 karra ko'paygan rivojlangan davlatlar uchun ham tan olarli ko'rsatkich.

Ta'lim tizimidagi yana bir muhim o'zgarish — kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish ko'lamini keskin kengayishi. 2023-yilda kasb-hunarga o'qitilgan xotin-qizlar soni 232 ming 923 nafar bo'lgan edi. 2025-yilga kelib, bu ko'rsatkich

ta'lim tizimlari yoshlarni faqat kasbga tayyorlash bilan kifoyalanib qolmasligi lozim. Ularda tahliliy fikrlash, kreativ yondashuv, ma'lumotlar bilan ishlash madaniyati va murakkab texnologik muhitda qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish har qachongidan ham muhim.

Yosh avlod uchun algoritmik tafakkur tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu faqat dasturlashni bilish degani emas. Masalaga tizimli yondashish, katta hajmdagi axborotni saralash, mantiqiy bog'liqliklarni ko'ra olish va texnologik vositalardan samarali foydalanish qobiliyati ham zamonaviy kasbiy madaniyatning bir qismi. Shu bilan birga, kommunikatsiya, jamoa bilan ishlash va tashabbuskorlik singari insoniy kompetensiyalar qiymati ortmoqda. Chunki kelajak ish muhitida inson va sun'iy intellekt o'rtasidagi hamkorlik modeli ustuvor bo'lishi kutilyapti.

Dunyoning ko'plab universitetlari va ilmiy markazlari hozirdanoq "AI bilan birga ishlash" konsepsiyasini ta'lim dasturlariga kiritgan. Talabalarga generativ platformalardan foydalanish madaniyati, ma'lumotlarni tekshirish usullari va intellektual xavfsizlik masalalari o'rgatildi. Sababi, ayrim ekspertlar kelajakdagi eng katta tafavut texnologiyaga ega davlatlar bilan ega bo'lmaganlar o'rtasida emas, undan samarali foydalana oladigan jamiyalar bilan foydalana olmaydiganlar o'rtasida yuzaga kelishini ta'kidlaymoqda.

Butun dunyoda AI imkoniyatlari haqida hayrat bilan gapirilmogda, yirik kompaniyalar va universitetlar yangi platformalarni ishlab chiqish pogoyasiga kirgan, millionlab insonlar esa bu texnologiyani kundalik hayotining bir qismiga aylantirib ulgurgan. Ayni bir chog'da mutaxassislar sun'iy intellektdan foydalanish madaniyati, axborot xavfsizligi va inson tafakkurining mustaqilligini saqlab qolish masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratgan. Shu ma'noda, mamlakatimizda yuritilayotgan raqamli transformatsiya siyosati aynan inson kapitalini mustahkamlash g'oyasi bilan chambarchas bog'liq. So'nggi yillarda yoshlarning AT sohaga qiziqishi keskin ortdi, zamonaviy texnologik platformalar kengayib, xalqaro hamkorlik dasturlari soni ko'paymoqda. Muhimi, bu jarayon yurtimizning global texnologik maydondagi o'rini mustahkamlash bilan birga yangi tafakkur muhitini shakllantirishga ham xizmat qilishi darok.



Bugun esa bir haqiqatni tan olaylik: butun dunyo o'zbekning jasur futbolchisi Abduqodir Husanovga ishqibozlik qilib, uni jahon yulduziga tenglashtirayotgani g'ururimizga g'urur qo'shmoqda. Biz bugun Abduqodir Husanovdan faxrlanish ila uyg'onmoqdamiz!

O'zbekiston deb atalmish qutlug' zaminga, o'zbek nomli buyuk xalqning hayotiga xush kelding, Uyg'onish fasli! Bizni ko'p kuttirmay, sog'intirmay kelganingga shukr! Sening soyangni emas, o'zingni — aynan uyg'onishdek bebaho labzalarni kutayotgan edik...
Juda yaxshi esimd. Yurt mustaqilligi bizga ozodlik, erkinlik, to'kinlik olib keldi deb ishongan edik. Afsuski, bu quvonch uzoqqa cho'zilmadi. Goh zanjirlangan eshiklar, goh qalin panjaralar bilan o'ralgan chegaralar ichida qo'rquv va hadik bilan yashay boshladik. Oramizda yana sho'r zamonidagi bir-birining qadamini poylash, og'zini hidlash illatlari bolalab ketdi. "Oq" va "qora" ro'yxatlar paydo bo'lishi bilan qatag'on davrini eslatadigan og'ir kunlar boshlandi.



Ashurali JO'RAYEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist

O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim "Yangi O'zbekiston" gazetasida chop etilgan "Riyosiz so'zlar" maqolasida jasorat va vijdon amri bilan yozganidek: "U-bu joylarda bo'lgan o'zgarishlar odamlarning dasturxoniga yetib kelmadi. Mamlakatni firibgarlar bosdi. Bu illatlarga qarshi kurashishi zarur bo'lgan tashkilotlar esa davlat ichida davlat tuzdilar. Odamlar ustidan zo'ravonlik joriy etildi. Masalan, Surxondaryoda xavfsizlik xizmati allaqanday fashistik (boshqa so'z ularning qilmishini ifodalab berolmaydi) tizim o'rnatdi. Odamlarni pashsha o'rmda ko'rmadilar. Xo'rldilar, mulklarini tortib oldilar, misli ko'rilgan qiynoqlarga soldilar, o'ldirib ham yubordilar. Qiynoqlarning Stalin zamonida kechgan usullarini qo'lladilar va ularni yanada yangi "pog'ona"larga ko'tardilar".

Maqolada ro'y-rost yozilgan bu og'ir va qora kunlarning ortda qolgan chin bo'lsin. Eslayversang, yuraging ezilib, qalbing titrab ketadi.

Xalqimizda "O'ning o'n beshi qorong'i, o'n beshi yorug'" degan hikmat bor. Endi "Riyosiz so'zlar" maqolasidagi "Odamlar odamga o'xshab yashashni o'rganayapti!" degan jumlagi e'tibor qarataylik. Bu so'zlarni shoir mustaqilligimizning 35 yilligi arafasida yozayapti.

Muallif o'zi qo'rgan savolga o'zi bunday javob beradi: "Butun mamlakatda bunday yoppa bunyodkorlikni qaysi qudrat harakatga keltirayapti? Bu savolga javob aniq: Shavkat Miromonovich Mirziyoyev!". Haqiqatan, Prezidentimiz fidoyi va jasur islohotchi sifatida xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirdi. Bugun ana shu islohotlar barcha sohada o'zini yorqin namoyon qilmoqda.

Ayni yangilanishlar tufayli xalqimiz hayotida va dunyoqarashida ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-amaliy uyg'onish fasli boshlandi... Yangi g'oyalari, yangi fikrlar tufayli islohotlar jarayoni izchillik bilan yuksak pog'onalarga ko'tarilib borayotir. Ona Vatan deb uyg'onish — buyuk baxt! Vatanning nurlu kelajagi, taraqqiyoti uchun birlashish esa cheksiz g'urur va quvonch!

"Uyg'onish" shu qadar jozibador, mo'tabar so'zki, uni har qancha yurakdan jo'shib, jo'r bo'lib, qo'lni qo'lga berib, yelkani yelkaga tirab, g'urur bilan baland ovozlarda hayqirib aytib, yarashadi. "Uyg'onish" so'zini eshitmas yoki o'qimas, buyuk shoirimiz Abdulla Oripovning "Uyg'onish zamoning" she'ridagi ushbu quyima satrlar dilimdan tilimga ko'chaveradi:

Oqqan daryolarning qaytadan oqsin,
Hali erimagan qorlarning bordir.
Sen san'at o'lkasi, she'r diyorisin,
Qancha chertilmagan torlaring bordir.

UYG'ONISH FASLI

Esse

O'zbekiston dunyoga yuz ochdi. Dunyo esa shunday bebaho va saxiy yurt, bag'rikeng, samimiy va tinchliksevar xalq borligini qayta kashf etib, uning bag'riga intilmoqda. Bu tabarruk tuproqni bir ko'rib, tavof etishga mehr bilan oshiqmoqda.

Uyg'onish zamoning muborak bo'lsin, Azaliy shiddatning, orlaring bordir...

Vatanim, seni bir bor ko'rganlar yana ko'rgisi kelib, sog'inib qolishi chin. Yana senga intilishi haqiqat. Sen dunyoni maftun etyapsan. Ulug' shoirimiz Erkin Vohidov ijodiy subhatlardan birida faxr bilan bunday degan edi: "O'zbekiston

— haqiqiy jannatmonand yurt. Bu go'zal zaminga, haqiqatan, Allohning nazari tushgan. Fasllarning tarbi bilan aylanib kelishi betakror nurlu, porloq yo'lidan dadil bormoqda. Ona Vatanimizning ko'rkam va betakror tarixiy maskanlaridan biri — Islom sivilizatsiyasi markazining bunyod etilishi millat qalbiga beqiyos ma'rifati hadya etdi.

boy mamlakatda yashashning o'zi tengsiz baxtdir!".

Agar ulug' shoirimiz hayot bo'lganida, xalqimiz Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligini ulkan yutuqlar bilan nishonlayotganini, tarixiy, madaniy va ma'rifiy yuksalishlar, milliy-ruhiy uyg'onishlar bilan kutib olayotganini ko'rib, behiyo sevingan bo'lar edi.

Yaxshi eslaymiz: millat uyg'onishining ilk sadolari 2016-yilda Shavkat Mirziyoyevning hali Prezidentlikka nomzodlik paytida saylovchilar bilan o'tgan ilk uchrashuvlarida yangray boshlagan edi.

Davlatimiz rahbari faoliyatida katta jasorat bilan yangi O'zbekistonni bunyod etish g'oyasini dadil ilgari surdi. Bu ulug'vor g'oya tufayli hayotimizga yangi tafakkur, yangi shijoat, yangi turmush tarzi hamda ijodiy kuch-g'ayrat shiddat bilan kirib kela boshladi. Birgina "yangi" so'zining o'zi odamlar ongida, hayotida o'zgarishlar sodir bo'lishiga turki berdi. "Yangi" so'zi mo'jiza yangiligi porladi.

O'zbekiston dunyoga yuz ochdi. Dunyo esa shunday bebaho va saxiy yurt, bag'rikeng, samimiy va tinchliksevar xalq borligini qayta kashf etib, uning bag'riga intilmoqda. Bu tabarruk tuproqni bir ko'rib, tavof etishga mehr bilan oshiqmoqda.

Uyg'onish faslining poydevori mustahkam, qadamlari dadil, qanotlari esa burgutnikiday shiddatlidir. U olis cho'qqilarni zabt etishni niyat qilgan. Buyuk va ezgu niyatlarining hamisha yo'ldoshing bo'lsin, uyg'onish burti! Sening shiddatli qanotlaring xalqimizga hamisha ilhom va najot bag'ishlasin!

Dunyoning taraqqiy etgan xalqlari tarixidan ma'lumki, millatning jahon sahnasida yorqin namoyon bo'lishi dastlab tarixiy, ruhiy-ma'naviy uyg'onish, milliy qadriyat va an'analarni anglash bilan boshlanadi. So'ng taraqqiyot bilan hamqadam bo'lgan ilmiy-amaliy uyg'onish hamda yetuk tafakkur orqali ro'yobga chiqadi.

Yangi O'zbekiston aynan mana shunday nurlu, porloq yo'lidan dadil bormoqda. Ona Vatanimizning ko'rkam va betakror tarixiy maskanlaridan biri — Islom sivilizatsiyasi markazining bunyod etilishi millat qalbiga beqiyos ma'rifati hadya etdi.

Bugun Islom sivilizatsiyasi markazi nafaqat O'zbekiston yoki Markaziy Osiyoni, balki butun dunyoni o'ziga maftun etayotgan betakror ma'naviy-ma'rifiy va tarixiy majmuaga aylandi. Markazga kelayotgan ziyoratdoshlar va sayyohlarning ko'zlaridagi hayrat va hayajonni ko'rib, qalbimizda g'urur, iftixor uyg'onadi.

Islom sivilizatsiyasi markazi salohiyati bilan birga o'zimiz ham kuchli millat bo'lib uyg'onaymiz. Dunyoni ham uyg'otaymiz. Olam ahli ham bizni angelayapti, tushunaypti, mehr va ishonch bilan intilyapti. Biz rivojlangan davlatlar bilan birga uyg'onaymiz, birga taraqqiy etaymiz.

Yangidan barpo etilgan Imom Buxoriy majmuasi ham ma'naviy-ma'rifiy va diniy tafakkurimizning, islomiy dunyoqarashimizning uyg'onishida bebaho ma'rifati maskaniga aylandi. Bu tabarruk qadamjoni ziyorat qilishga yurtodoshlarimiz va xorijlik mehmonlarning qadami uzilmayapti. Biz Imom Buxoriy ruhiyati bilan uyg'onmoqdamiz.

Qaysi sohani olmag, har qadamda yangi islohotlar amalga oshayotganidan rozi bo'lib yashayotgan, uyg'onish lahzalaridan bahra olib, zavqu shavq, kuch-g'ayratga to'layotgan, yangi maralarni zabt etayotgan g'ayratli, bilimdon yoshlarni ko'rib, hayratlanasiz.

Sport sohasini olaylik. Masalan, biz ko'proq Pele, Maradona singari jahon futboli yulduzlariga ishqibozlik qilib kelganmiz. Hatto biz, ishqibozlar guruhlariga bo'linib, o'zaro bahslashganmiz.

Bugun esa bir haqiqatni tan olaylik: butun dunyo o'zbekning jasur futbolchisi Abduqodir Husanovga ishqibozlik qilib kelganmiz. Hatto biz, ishqibozlar guruhlariga bo'linib, o'zaro bahslashganmiz. Bugun Abduqodir Husanovdan faxrlanish ila uyg'onmoqdamiz! Biz — dzyudo bo'yicha jahon chempioni Diyor Keldiyorovning jasorati bilan uyg'onmoqdamiz! Boks bo'yicha dunyo tan olgan mutlaq chempion Bahodir Jalolovning matonati bilan uyg'onmoqdamiz! Xalqaro shaxmat federatsiyasining Nomzodlar turniri g'olibi Javohir Sidorovning tafakkuri bilan uyg'onmoqdamiz.

Hozirgi tarixiy islohotlar jarayonida minglab bilimdon, kitobxon hamda sohasining fidoyisi bo'lgan, nurlu kelajagimiz bunyod bo'layotganiga astoydil ishongan halol-pok insonlarning hayrati va shijoati bilan uyg'onmoqdamiz...

Bu uyg'onishlarimizning bosh sababchisi Prezidentimiz ekanini faqat o'zbek xalqi emas, balki dunyo ko'rib, bilib turibdi.

Ilohim, yangi O'zbekistonimizning uyg'onish fasli gullab-yashnasin, boqiy bo'lsin! Xush kelibsang, Uyg'onish fasli!

ZOMIN TOG'LARI NING DOVRUG'I DUNYOGA TARALMOQDA

Zominga kelgan har bir mehmon tezroq tabiat bag'riga, tog'larga chiqishga shoshiladi. Sababi, Zomin tog'lari o'zining betakror tabiiy landshafti, biologik xilma-xilligi, o'simlik va hayvonot dunyosining boyligi bilan ajralib turadi. Aslida, tabiat bilan tanishish tuman markazidan boshlanadi. 182 milliard so'm hisobiga bunyod etilgan "Zominsoy"da mehmonlar va sayyohlar uchun zarur infratuzilma yaratilgan. Umumiy ovqatlanish shoxobchalari, ko'ngilochar maskanlar va mehmonxonalarda sayyohlarga sifatli xizmat ko'rsatilmogda.

Shuningdek, turli tadbirlar o'tkazishga mo'ljallangan muhtasham tantanalar majmuasi bunyod etilgan. II Xalqaro maqom san'ati festivali ham aynan shu yerda bo'lib o'tgan edi. Unda qariyb 80 davlat va xalqaro tashkilotdan 400 ga yaqin san'atkor hamda musiqashunos qatnashdi. Mana shunday ko'ngilochar maskanlardan ko'ngli yorishgan mehmonlar yuqori kayfiyatda safarini davom ettiradi.

Tog'larga yetaklovchi yo'l bir zunda sizni "Zomin" suv omboriga olib boradi. Undan o'tgach, Duoba qishlog'i boshlanadi. Usmonli soy va Yetikechuvdan oqib kelayotgan suvning qo'shilish joyida joylashgan ushbu qishloqda turli hunarmandlik mahsulotlari, milliy taomlar va kiyim-kechak savdo shoxobchalari mavjud. Dovrug'i butun dunyoga ketgan Zomin tandir go'shti va patiri ham shu yerda tayyorlanadi. Sayyohlar bu milliy taomlarni nafaqat tanovul qilishi, balki ularning tayyorlanish jarayoni bilan bevosita tanishishi ham mumkin. Duobaga "Turizm qishlog'i" maqomi berilgan.

Zomin tog'lariga sayohat, asosan, Milliy tabiat bog'idan boshlanadi. Uning ramziy darvozasi O'rniklisoyda joylashgan.



Turizm

— Tabiat bog'i 1976-yili tashkil etilgan, — deydi Zomin milliy tabiat bog'i direktori Bobur Xo'jayev. — Uning umumiy maydoni 23 ming 429 gektar. Hududimizda archaning qora, o'rik va savr navlari o'sadi. Shuningdek, 1216 turdagi o'simlik mavjud bo'lib, ularning 21 turi O'zbekistonning "Qizil kitob"iga kiritilgan. O'simliklarning 100 dan ortiq turi shifobaxsh xususiyatga ega. Tog'larimizdagi archalar nafaqat go'zallik ramzi, balki odamlar uchun o'ta zarur toza havo va bitmas-tuganmas kislorod manbai hamdir.

Atrofdagi go'zallikka maftun bo'lib, Zomin sanatoriysi va sharsharasiga yetib kelganingizni sezmay qolasiz. Baland tog'lardan otilib tushayotgan sharshara atrofi hamisha gavjum. Sayyohlarni jalb etayotgan zamonaviy osma dor yo'li ham sharsharaning shunday yonida joylashgan. 12 ta minora, 11 ta ustun va zamonaviy dizayndagi 36 kabinadan iborat ushbu dor yo'li Zomin tog'lari manzarasini balanddan tomosha qilish imkonini beradi. Tog'larga o'zgacha ko'rik va joziba baxsh etib turgan archazorlar, baland qoyalalar va chuqur daralarni yuqoridan kuzatishning zavqi o'zgacha.

— Dor yo'lida atrofini kuzatish naqadar zavqli ekanini so'z bilan ta'riflash qiyin, — deydi Navbahor tumanidan kelgan Murodilla

Rahimov. — Umr yo'ldoshim bilan sayohatga kelganimizdan nihoyatda xursandmiz. Tabiat go'zalligidan olgan taassurotlarimiz bir olam.

Zomin geografik joylashuviga ko'ra tog'lar, qir-adirlar va umuman, sayyohlarni jalb qila oladigan xushmanzara tabiatga ega. Turizm — tuman iqtisodiyotining asosiy drayveri. Bu yerda sayyohlarga zamonaviy xizmatlar ko'rsatish uchun juda ko'p qulaylik yaratilmoqda. Bugun 3000 dan ziyod mehmonni qabul qilishga mo'ljallangan, 3195 o'rinli 147 ta joylashdirtirish vositasi, mehmonxona va xostellar mavjud. Turistlarga qulaylik yaratish maqsadida "Afrosiyob" tezyurur poyezdining Jizzax temir yo'l vokzalida to'xtab o'tishi, tumanning "Laylak uya" massivida Zomin aeroporti va yo'lovchi terminali qurilib, foydalanishga topshirilishi ham xorijiy va mahalliy sayyohlarga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor ifodasidir.

Dor yo'li orqali Suffaga chiqasiz. "Suffa platosi. 2400" xalqaro umummavsumiy kurort majmuasida yurtimizda yagona bo'lgan, uzunligi 305 va balandligi 150 metrli oynali osma ko'priki sayyohlarga xizmat ko'rsatmoqda. Shuningdek, ekstremal turizm ixlosmandlari uchun ziplayn xizmati yo'lga qo'yilgan. Ming o'rinli amfiteatr va 500 sayyohga xizmat ko'rsatuvchi sog'lomlashtirish markazi mavjud.

Sayyohlik maskanlarida turli festivallar, konsertlar, xalqaro marafon va turizm tadbirlari muntazam o'tkazib kelinmoqda.



Abdusattor SODIQOV,
faxriy jurnalist

Zomin tog'larida qor qalin yog'ishi va qish mavsumi uzoq davom etishini hisobga olgan holda tog'chang'i sportini rivojlantirish ham rejalashtirilgan.

— Ko'p mamlakatlarda sayohatda bo'lganman, — deydi belaruslik sayyoh Aleksandr Mixaylov. — To'g'risi, Zomin tog'larining betakror manzarasi va musaffo havosi menga huzur bag'ishladi. Ko'ngilochar maskanlar va osma ko'priki har qanday odamni hayratga solar ekan. Yurtimizda turizmni rivojlantirishga davlat darajasida e'tibor qaratilayotgani tahsinga loyiq.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-546. 30761 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taqob. Oqset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy